

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 30-may
№22 (3136)

MUDDAFAA

XAM QALQONIDIR!



“O’rmalashga tug‘ilgan —
parvoz qilolmas!”

X. SULTON

OSMONI FALAKLARDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz



vatanparvar-bt@umail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON TAJRIBASI OZARBAYJON JURNALISTLARI NIGOHIDA

O'zbekiston – Ozarbayjon davlatlarining axborot sohasida hamkorligi doirasida matbuot kotiblari va ommaviy axborot vositalari vakillari muntazam ravishda o'zaro tajriba almashish, press-turlar tashkil etish, seminar-treninglar orqali mamlakatlarda amalga oshirilayotgan yangiliklar, zamonaviy texnologiyalarni sohaga samarali integratsiya qilinishini ko'rsatib berish yo'iga qo'yilgan. Bu esa soha xodimlarining tajriba almashishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

O'zbekistonda axborot sohasidagi islohotlar, yangilanishlarni o'rghanish, tajriba almashish maqsadida bir guruh ozarbayjonlik matbuot kotiblari va ommaviy axborot vositalari mutasaddilari mamlakatimizga tashrif buyurdi.

Ozarbayjon delegatsiyasi turli media tuzilmalar, davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyati bilan tanishib, O'zbekistonning diqqatga sazovor joylarida press-tur tadbirlarida ishtirok etdi.

Delegatsiya a'zolari tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti mehmon bo'lib, departament faoliyati, uning tarkibidagi "Vatanparvar" birlashgan tahririysi va Axborot-media boshqarmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari va web-resurslar bilan ishlash bo'limi hamda "Armiya studiyasi" pavilyoni bilan yaqindan tanishdi.

Tashrif doirasida Departamentda jurnalistlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Bu yerdagi zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli media tizimlari va professional studiyalar, axborot materiallarini tayyorlash, tahrirlash va tarqatish jarayonlarining yuqori texnologik asosda tashkil etilgani, zamonaviy multimedia uskunalarini hamda onlayn efirga uzatish imkoniyatlari ega platformalar mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Shu sababli ular Departament faoliyatini yuqori baholab, axborot siyosatida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi, ayniqsa harbiy sohadagi axborot-kommunikatsiya ishlarning va jamoatchilik bilan munosabatlarning samaradorligida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Saida SHAFIYEVA, Ozarbayjon mediani rivojlantirish agentligi matbuot kotibi:

– O'zbekistonda axborot sohasida olib borilayotgan tizimli islohotlar, ayniqsa harbiy kommunikatsiyalarda shaffoflik va professional yondashuvning ta'minlanayotgani menda katta taassurot qoldirdi. Xususan, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti yaratilgan sharoitlar jurnalistlarning samarali faoliyatiga sabab bo'lmoqda ekan. Aslida, bu sohadagi salohiyat va ilg'or yondashuvning yorqin ifodasi sanaladi. Shuningdek, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ham tahsinga loyiq. Bu tajriba, shubhasiz axborot xavfsizligini ta'minlash va jamoatchilik bilan samarali muloqotni

yo'iga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aliya IMAN AZIZ, "Anews" telekanali muxbirি:

– Biz uchun ushu tashrif nafaqat O'zbekiston haqidagi bilimlarimizni boyitdi, balki axborot sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun poydevor bo'ldi. Men Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti faoliyatidan ilhomlandim. Departamentda faoliyat yuritayotgan jurnalistlarga havas qilyapman, to'g'risi. Men turli mamlakatlarda bo'lganman, ko'plab axborot markazlari va tahririyatlar faoliyati bilan tanishganman. Ammo harbiy axborot tarqatishga ixtisoslashgan, zamonaviy infratuzilma va innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat yurituvchi bunday departamenti avval ko'riganman. Bu yerda yaratilgan sharoitlar, ish uslubi va axborot bilan ishslashdagi professionallik, menimcha, boshqa davlatlar uchun ham o'rnatko'lishiga arziydi.

O'zaro tajriba almashish, axborot sohasidagi yangilanishlarni amaliyotda ko'rsatish, soha mutaxassislari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatish – bugungi kunda jahon axborot maydonida muhim omil hisoblanadi. Mazkur tashrif ana shu maqsadlarga xizmat qilib, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtaсидagi axborot hamkorligida yangi sahifa ochdi.

Shu kuni mehmonlar uchun "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeiyiga ekskursiya tashkil qilindi.

**Podpolkovnik
Gulnora HODJAMURATOVA,
"Vatanparvar"**



Vatan manzumasi

XALQ VA ARMIYA BIR TAN-U BIR JON!

*Ota yurt, xizmatingga qodir bo'lib borarman,
Go'ro'g'lixon, Alpomish, Tohir bo'lib borarman.*


Shoirimiz Mansur Jumayev bu misralarda ko'zda tutgan kechinmalarini endi tushungandek bo'lyapman. Vatan himoyasi uchun har birimiz mas'ulmiz, bu yo'lda oshiq, shoir, Alpomish-u Go'ro'g'li bo'lsam ham, shu Vatan koriga yararga boraman demoqda shoir.

Vatanni asrash har birimizning burchimizdir. Bu yo'lda har kim har qiyofada namoyon bo'ladi. Kimdir qo'liga qurol olib yurt sarhadlarini yomon ko'zlardan asrasa, kimdir qo'liga qalam olib, yurtning dovrug'ini yuksaklarga ko'taradi. Ulug' shoirimiz Abdulla Oripov bejiz:

*Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher,
deya ta'kidlamagan. Vatan oldida hammaning o'z vazifasi bor. Olim ilmi bilan, dehqon hosili bilan, kosib kasbi bilan Vatan tinchligi va farovonligi uchun o'z hissasini qo'shamdi. "Vatan manzumasi" dasturi esa har sohada faoliyat olib borayotgan harbiy-u shoirlarni, sanatkor-u olimlarni bir joyga yig'ib, Vatan uchun xizmatga chorlaydi.*

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan adabiy-ma'rifiy dastur Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan yangicha islohotlar tufayli yurtimizda shakllangan "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" degan ezgu an'anani, ayniqsa ijodkorlar va harbiy xizmatchilar orasida yakdillikni yanada mustahkamlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashni maqsad qilib olgan.

Ma'rifiy kechani O'zbekiston Respublikasi madhiyasi ochib bergenidan so'ng tadbir kuy-qo'shiqlar, ash'orlarga ularin ketadi. Har bir detalgacha nazardan chetda qolmagan ushbu



dastur yurtimizning taniqli xonandalari, aktyor, suxandonlari, shoir-u shoiralari, harbiylardan tashkil topgan bir guruh iste'dodli yoshlar va ustozlarni bir joyga jamladi.

Tadbirni kuzatar ekanman, o'z yurtini, elini sevish, ardoqlash kabi baland hissiyotlarni qo'zg'ovchi, alangalatuvchi, o'stiruvchi "Vatan manzumasi" har kuni, har hududda o'tkazilishi kerak ekan, degan o'y-fikrlar o'tdi ko'nglimdan. Quvonarlisi, zalni to'ldirib turgan tomoshabinlar zarracha bo'lsa ham zerikish hissini tuyymadi, ular har bir sahna ko'rinishini qarsaklar bilan kutib oldi.

Tadbir so'ngida 2000-yili Sariosiyo voqealarida Vatan tinchligi yo'lida halok bo'lgan qahramonlarimiz yod etildi. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning mard va jasur yigitlarimiz xotirasiga bag'ishlangan "O'g'lonlar" she'ri tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi. Yosh ijodkorlar tomonidan ijob etilgan ushbu she'r dasturning kulminatsiyasi bo'ldi.

Har birimiz Vatan yo'lida xizmatkorlarmiz. Shu yurtning tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash muqaddas burchimizdir. "Vatan manzumasi" dasturidan ko'zda tutilgan asosiy g'oyalardan biri ham shu. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, yurtimiz sarhadlarini begona ko'zlardan asrashdek ulug' g'oyalalar ko'zda tutilgan.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



Mardi maydonlar



VATAN SO'ZI KENG OSMONDA

Yotog'im derazasidan quyoshni ufq ortiga o'tishiga qarab, xayollarim daryosida yakka-yolg'iz suzyapman. O'tmish xotiralari miyamni siquvga olgan. Azobli. Kelajagim yo'qdek ko'ringan kezlar ko'z oldimdan birma-bir o'ta boshlaydi. O'shanda shafqatsiz dunyoning qing'ir ishlaridan tamom bo'lib, tog'larga qochib ketardim. Toshlar bilan dardlashardim. Tabiatni tinglardim. Ko'kda parvoz etayotgan qushlarga soatlab qarab o'tirardim. Qanot qoqishlariga havasmand edimda. Darvoqe, balandlikdan qo'rqmaysizmi? Chunki bu safargi hikoyam aynan qomatsiz osmon kengliklarini zabit etib kelayotgan mardlar haqida bo'ladi.

Yaqinda mamlakatimizning eng olis hududlaridan biri – Surxondaryoda bo'ldim. Sherobodda, Maydon tomonda. Bilasiz-a u tomonlarni? Shuning uchun manzarasiga ko'p to'xtalib o'tirmayman. May oyi bo'lishiga qaramay, bu yerlar juda issiq bo'ladi. Quyosh pastlagandek. Allaqaqhon maysalar qovjirab qolgan. Suv ham tortilgano. Ayrim yerlarning yuziga tushgan "ajinlar" chuqur-chuqur. Xuddi qovjiragandek. Bir joyda oyoqlaringiz ostidagi chang tepaga qarab o'rmalasa yana bir joyda qovjirab qurib qolgan loy bosganda qisirlab ajoyib tovush chiqaradi.

Xullas, poyezddan tushgan kunimizdanoq mashg'ulotlarga kirishib ketdik. Keng maydonda azamatlar parashyutni taxlash, sakrash oldi tayyorgarliklari, havo transportidan chiqishda ahamiyat qaratish borasidagi bilimlarni o'zlashtirayotgandi. Bir chetga o'tib, ularni zimdan kuzata boshladim. Qo'limdagি fotoapparatni shay holatda ushlab olganman. Maqsadim – eng qiziq jarayonda yigitlarning harakatini fotosuratda muhrlash.

Mayor Oqil Ismoilov topshiriqlarni bajarayotgan harbiy xizmatchilarga tushuntirish berayotgani e'tiborimni tortdi.

Chunki, aynan bu sizning ko'kdagi muvaffaqiyatingizni belgilaydi.

Mayor Ismoilov shaxdam qadam tashlab bordi-da, navbatdagi harbiy xizmatchining ro'parasiga to'xtadi:

– Havoga chiqqaningizdan so'ng oyoq qo'yishga joy topolmay qolasiz. Buning qanchalik yomon ekanini biroz bo'lsa-da, yerda turib his qilish lozim. Qo'rqish, xavotir olish kerak, demayman. Shunchaki, harbiy xizmatchi tepaga chiqqanidan keyin, faqat o'zi taxlagan parashyuti bilan yolg'iz qolishini anglashi kerak. Biz uchun har bir mutaxassis qadrli. Unutmang, arzimagan kamchilik ham hayotingizni xavf ostiga qo'yadi.

Tepamizda turgan quyoshning o'tkir nurlaridan borliq qaqshar, tanadagi bor namlik ko'kka chiqib, bug'lanib ketayotgandi. Lekin harbiy xizmatchilar kerakli bilimni olish uchun shunday sharoitda ham tinim bilmaydi. To'g'ri-da,

ular uchun bu hech narsa emas, dersiz? Ammo bir tasavvur qilib ko'ring, to'liq jangovar shay ko'rinishda, qolaversa quroslasha va yana parashyut solingen qariyb 20 kilogramm keladigan qopni ko'tarib, 40 darajadan kam bo'limgan issiqda yurish, sakrash sinovlaridan o'tish... bular unchamuncha kishining ruhini cho'ktirib qo'yadi, aslida.

Yurt o'g'lonlarini, o'zi umuman, parashyut bilan sakragan kishini hech kuzatganmisiz? Tashqaridan qaraganda juda zavqlidek ko'rinadi, a? Biroq bu o'ta mashaqqatli ekan. Chunki havo transportidan sakraganingizdan keyin bo'shliq uzra o'zingiz qolasiz. Agar berilgan ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsangiz unda parvozni kutilganidek ado etasiz, aks holda... Bu haqda o'ylash ham kishi vujudini jimirlatadi. Xullas, shu kuni qanotsiz ko'kni zabit etayotgan azamatlarga havas qildim.

Unga yaqinroq borar ekanman, so'zlarini aniqtiniq eshitardim.

– Desantchi parashyutga nisbatan o'ta did, diqqat-e'tibor bilan munosabatda bo'lish kerak, – derdi mayor. Uning ovozi jangovar va komandirlarga xos yangrardi. – Parashyutni aytilganidek, o'rgatilganidek taxlash kerak. Har bir bosqichga sinchkovlik bilan qarash shart.





HAM BARALLA AYTILADI

**- VATANIMNING SHA'NI
MEN UCHUN ORIMDAN**

HAM USTUN TURADI, – deydi kichik serjant Shermuhammad Mamasoliyev. – Shuning uchun u chorlagudek bo'lsa, bahona qilmayman. Aksincha, ko'ksimda urayotgan yuragim qoni to'lib-toshadi. Gaplarim siz uchun ehtimol erish tuyular. Biroq bizga ota-onamiz ana shu yo'lda joning fido bo'lsa ham, ortga qaytma, deb ta'kidlagan va doim bunga amal qilganman. Bugungi mashqlar harchand qiyin va mashaqqatli bo'lmasin, undan zarur bilim olaman, irodamni, ko'nikmamni mustahkamlayman. Eng muhim jihat: biz o'zimizdan keyin safimizga kelib qo'shilgan harbiy xizmatchilar uchun namuna bo'lismiz kerak. Ana shunda ko'zlagan marra zabit etiladi. Vaqt kelib ular ham keyingi avlod uchun o'zlarining imkoniyatlarini namoyon etadi. Alaloqibat, bu uzilmas zanjirga aylanadi. Demak, hozir tashlayotgan

har bir qadamimiz kelajak bilan uzviy bog'lanayti.

Aka, "bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" degan naqlni eshitgansiz, shundaymi? Ayniqsa, bu armiyada ko'p qo'llaniladi. Chunki safda turganda Vatan himoyachilari bir mushtga, ta'bir joiz bo'lsa, bir tan-u jonga aylanadi. Men suhbatini olgan yigitlar esa nafaqat o'zi bilan birga xizmat qilayotganlarning mas'uliyatini, balki keyingi avlod oldidagi mas'uliyatlarni ham o'ylab, g'am chekardi. Xo'sh, bu nimadan darak beradi? Nazarimda, o'sha naqlning mag'ziga yetib borilgan. Uning xushbo'y ta'mi, kuch-quvvatga limmo-lim qudrati fosh etilganki, bugun yurt himoyachilari o'zi va izdoshlarining bir chiziqdan og'ishmay yurish, Vatanga kerakli farzand bo'lismay istagi bilan yashayapti.

Keyingi kuni ertalab soat oltidan amaliy mashg'ulotlar boshlanadi.

Shuning uchun tong saharlab uyg'ondik. Biz turgan binoning orqa tomoni daraxtzor. Archa, o'rik, terak, jiyda va shotut daraxtlarining qalin barglari ostida tonggi soya-salqinlik bor. Xonamiz derazasi ana shu tomonga qarab ochib qo'yilgan. Undan kirayotgan mayin shabada va qushlarning ovozi quvvatsizlangan tanaga xush yoqadi. Kishiga qandaydir kuch ato etadi.

VERTOLYOT QO'NISH JOYIGA YETIB KELDI. Komandir dastlabki guruhga kerakli ma'lumotlarni bergach, yigitlar havo transportiga chiqib joylashdi. Mi-8 1 200 metrغا ko'tarilgach, sakrashga signal berildi. Shundan so'ng harbiy xizmatchilar navbatma-navbat zamin tomon o'zlarini "ota" boshladi. Ma'lum soniyalaridan so'ng parashyutlar ochilib, ko'k uzra mayda-mayda oq dog'lar paydo bo'lidi. Bu manzaraga pastdan qarab turar ekanman, harbiylarning shijoati, qaytmas yuraklarining

urayotgan tovushi quloqlarim ostida gumburlardi.

– Nimadan qo'rqsangiz shu hayotingizda sodir bo'ladi, deyishadi, – deydi kichik serjant Ilhom Salomov. – Ana shuning uchun men hech narsadan qo'rqmaslikka odatlanganman. Agar ruhimda nimanidir sezsam darrov o'zimni o'zim tinchlantiraman. Diqqatimni boshqa nuqtaga yo'naltiraman. Maqsadimdan chalg'ishga haqqim yo'q. Har safar parashyut bilan sakrash davomida "Men Vatan himoyachisiman!" deya keng osmonda baralla aytaman. O'z so'zlarimdan zavqlanaman. Kuch olaman. Yerni, ona zaminimni tepadan tomosha qilib, uning uchun munosib farzand bo'lishim haqida o'layman. Qisqasi, parvoz zavqi bilan birga maqsadlarni ham aniqlab olaman.

Yerga qo'ngan azamatlar topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganidan mamnun. Chunki navbatdagi vazifa a'lo darajada ado etilgandi. Bu hisni faqat parashyut bilan amaliy sakraganlar his etadi.

Aytgancha, so'zim avvalida g'amlarni ortda qoldirish uchun tog'larga chiqib ketar edim, degandim. O'shanda cho'qqilar-la turib, pastga sakrashni o'ylardim. Yo'q, ko'zni yumish uchun emas, uchish uchun. Ammo menda na qanot bor edi va na parashyut. Shunday qilib u orzu bo'lib qolyapti. Vaqt kelib bu maqsadga ham erishish imkoniyati paydo bo'lar. Faqat buning uchun biroz chiniqishim, parashyut bilan sakrash sir-sinoatlarini qunt bilan o'rganishim kerak. Ishonamanki, sakrashni do'ndiraman. Chunki men tog' odamiman. Bu haqda esa albatta, keyinroq gapirib beraman. Ha, bolaligim haqida.



Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"

Otliq bo'linmalar

QIRG'IV OTLI QORABAYIR

Mudofaa vazirligi qo'shnlari otliq o'quv jangovar va yuk tashuvchi hayvonlardan foydalanish bo'linmalar harbiy texnikalar yetib bora olmaydigan qir-adirlar, tog' va baland qoyali hududlarda harbiy xizmatchilarning yengil va tezkor harakatlanishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Mudofaa vazirligining barcha harbiy okruglarida faoliyati yo'lga qo'yilgan mazkur bo'linmalar shaxsiy tarkibining asosiy vazifasi otlar yordamida texnika vositalarining harakati cheklangan hududlarga quroq-aslaha, o'q-dorilar, oziq-ovqat, tibbiy jihozlar va boshqa harbiy yuklarni yetkazish etib belgilangan. Shu bilan birga ular qorovullik va patrullik xizmatlarini o'tashda, tantanali marosimlarda, texnika vositalari ishdan chiqqanda tabiiy va texnogen xususiyatlari hodi salarda qidiruv-qutqaruv, evakuatsiya ishlarida ham ishtirok etadilar.

Otliq o'quv jangovar va yuk tashuvchi hayvonlardan foydalanish bo'linmalar tarkibida mamlakatimizda ot sportini rivojlantirish, aholi va yoshlarni chavandozlik, ot sporti turlari bilan shug'ullanish maqsadida klublar va to'garaklar ham tashkil etilgan bo'lib, ularga yuzlab yoshlar jalb qilingan.

O'tgan haftada biz "Chirchiq" dala-o'quv mashg'ulotlari maydonida joylashgan Toshkent harbiy okrugi otxonasida bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlar va mutaxassis yo'riqchilar bilan suhbatlashdi.

– Bo'linmamiz shaxsiy tarkibi muddatli va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilardan iborat bo'lib, ular safimizga tanlab, saralab olingen. Chunki ot bilan ishslash alohida tayyorgarlik va mehrni talab qiladi. Ular o'zlariga biriktirilgan otlar bilan bir qator mashg'ulotlarni olib boradi. Bular ilk parvarishdan boshlab, jangovar vaziyatlarda yuk tashishgacha bo'lgan tayyorgarliklardan iborat, – deydi Toshkent harbiy okrugi otliq o'quv jangovar va yuk tashuvchi hayvonlardan foydalanish guruhi katta yo'riqchisi kichik serjant G'iyosjon Rahmonov. – Parvarishimizda xizmat otlaridan tashqari sport otlari ham bor. Ulardan birining laqabi Qirg'iy, zoti qorabayir. Bu rekordchi ot bo'lib, u kuch tuzilmalari o'rtaida har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan qorabayirlarning poyga musobaqasida bir necha bor g'olib bo'lgan.

– Amaliy mashg'ulotlarni Chimyon tog' tayyorgarligi o'quv markazida o'tkazamiz. Avtomatik granatamyot, minomyot va boshqa qurollar, qutilarga joylangan o'q-dorilar yoki boshqa yuklarni tog' cho'qqilariga belgilangan vaqtida talafotsiz yetkazish eng muhim masala, – deydi III darajali serjant Og'abek O'rolov. – Tog' so'qmoqlari va daralardan o'tishda e'tibor qilinadigan jihatlar juda ko'p. Masalan, oddiy misol tog'dagi

namgarchilik yoki tez-tez yomg'ir yog'ishini olaylik. Bu holat og'ir yuk bilan yurishda, ayniqsa tik ko'tarilishlarda sirpanchilikni yuzaga keltirib, rejani barbob qilishi mumkin. Shu kabi holatlarni inobatga olgan alohida mashqlarimiz ham bor.

Chimyon cho'qqilariga ustidagi og'ir qurol-yarog' va o'q-dorilar bilan yo'l olgan karvonni kuzatar ekansiz, otning haqiqatan insonning do'sti ekaniga amin bo'lasiz.

Furqat ERGASHEV,
"Vatanparvar"



Qorabayir

Qorabayirning paydo bo'lishi o'zbek xalqining tarixi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu zot o'zgaruvchan tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashuvchan, chopqir, kuchli. Nihoyatda ko'rkar. Qora terga tushsa ham charchamaydi, ozuqa tanlamaydi.

Qorabayir tog' sharoitiga yaxshi moslashadi, issiq va sovuqqa bardoshli. Poygada, ayniqsa, uzoq masofaga chopish, to'siqlardan sakrab o'tishda boshqa zotlardan aslo qolishmaydi. Milliy ot sporti musobaqalarida unga tenglashadigani topilmaydi.



Ijtimoiy himoya

HARBIYLAR HAYOTIDA YANGI SAHIFA

Bugun mamlakatimiz aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, har bir vatandoshimiz o'z hayotidan rozi holda, baxtli va farovon turmush kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Xususan, bor kuch-g'ayrati, zehn-u salohiyatini yurt himoyasiga bag'ishlagan Vatan posbonlari va ularning oila a'zolari ham doimiy diqqat-e'tiborda ekani, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida joylashgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismalarning birida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'lolarga yangi xizmat xonadonlarini topshirish jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Tantanali tadbirda Nukus shahri hokimi, keng jamoatchilik vakillari harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Ayni damda foydalanishga topshirilayotgan uylar harbiylar uchun davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor hamda g'amxo'rlikning namunasi ekani, bu esa

Vatan posbonlarini g'ayrat va shijoatga undab, yanada yuksak marralarni zabt etishlariga kuch-g'ayrat bag'ishlashi shubhasizligi ta'kidlangach, yangi xonadonlarning kalitlari o'z sohiblariga topshirildi.

– Bugun tinchlik va osoyishtaligimiz yo'lida kunni tunga ulab faoliyat olib borayotgan harbiylar hayotida yangi sahifa ochildi. Ularning quvonchi cheksiz. Chunki inson oilasi bilan farovon yashashi, ko'ngli xotirjam bo'lishi uchun, eng avvalo, yashash joyiga – oshyoniga ega bo'lishi kerak. Endi bizning ham ana shunday oshyonimiz bor. Turmush o'rtog'im chegaralarimiz himoyasida bo'lgan vaqtlarida, men shinam xonadonimizda farzandlarim tarbiyasi bilan mashg'ul bo'laman, bundan ortiq baxt bormi?! – deydi Gulmira Asadova.

Jizzax viloyatida Vatan

sarhadlarini qo'riqlayotgan kichik serjant Shohjahon Ergashev ham ana shunday baxtiyor chegarachilardan biri. Boisi, u va safdoshlari uchun viloyatining qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh hududida yangi xizmat xonadonlari foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda viloyat, tuman hokimligi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ul rahbarlari, harbiy qism qo'mondonligi, keng jamoatchilik vakillari, sarhadlarimiz posbonlari hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Unda so'z organlar sharafla kasb sohiblarining bemisl xizmatlarini alohida e'tirof etib, hayotlaridagi shodiyona kun bilan qutladilar.

– Bizga yaratilayotgan bunday qulaylik va shart-sharoitlar uchun Prezidentimizga cheksiz minnatdorlik bildiramiz.

Hovlidagi bolalar maydonchasi farzandlarimizga zavq va quvonch ulashayotgan bo'lsa, tikuv sexi turmush o'rtoqlarimizning bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, hududda energiya tejamkorligiga erishish maqsadida 30 kv quyosh panellari ham o'rnatilgan, – deydi kichik serjant Shohjahon Ergashev.

Mehmonlar yangi uylda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan tanishar ekan, xonadon sohiblariga baxt-u saodat tilab, duoga qo'l ochdi.

Ishonchimiz komilki, yurt himoyachilari ham bunday e'tibor va g'amxo'rlikka javoban, o'z burchlarini yanada katta mas'uliyat bilan sidqidildan ado etib, yurtdoshlarimizning osuda va farovon hayotini ta'minlashga bor kuch-g'ayratini safarbar etadir.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



"Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" tanloviga



"Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?

Sahar vaqtida gullaring so'ldi..."

Bu - Cho'lpon ruhi. Bu - o'zlikka chaqiriq. Bu - bedor ruhlar q'shig'i.

Uni eshitgan sayin qalbimda titroq uyg'onadi. Vujudimda ko'hna dard, og'riqli alam g'alayon qiladi. Bu ohang - asoratga nisbatan kuylangan hayotiy sado, uning har bir satridan erksizlikka qarshi nafrat, istiqqlola intilish, yurtga sadoqat ufurib turadi.

Bu q'shiqda men jadidlarning:

"Qo'zg'al xalqim, yetar shuncha jabr-u jaflolar!" degan hayqirig'ini eshitaman. Yo'llari ayro, ammo orzulari yurtni ozod ko'rish bo'lgan botir bobolarim ko'z o'ngimda gavdalanaaveradi. Bu q'shiq meni yaqin o'tmishta - Behbudiy, Fitrat kabi elparvar ziyorilar zamoninga yetaklagandek bo'ladi.

Fidoyilik hidi kelar ostonalardan

Boborga armon istiqlolni ko'rish bizga nasib etdi. Bugungi avlod o'z ajodalrlarini tanish baxtiga muyassar bo'layotganligi - ulkan saodat! O'zingga shukr! Buxorodagi jadidlik harakati namoyandalar - Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Fayzulla Xo'jayev shaxsiyati ham yillar davomida sovet hukmronligi tomonidan qoralab kelingan edi. Biroq bugun bu ikki shaxsga ham xolis baho berishga harakat qilinmoqda.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning bugungi kunda xorijda istiqomat qilayotgan o'g'li ota yurdan dil rishtasini uzmag'an. Past bo'yli, donishmand qiyofali Temurxo'ja o'g'li bugungi kunda olimlik darajasiga yetgan: AQShdag'i Michigan universiteti professori.

Temur Turkiyada yashaydi. Oilasi, farzandlari, ishi ham xorijda. Ammo qalbining bir parchasi har doim Buxoroda qolgan. U obig'ishtlardan bino bo'lgan eski hovli ostonasida turibdi. Bu - ota hovli...

O'g'il otasining qadami yetgan yo'llarni sassiz bosib o'tadi. O'sha qadamlardan anglash dushvor bo'lgan hid anqigandek bo'ladi. Bu - bolalik hidi, ilk mehr hidi, qalbdagi milliy ruh, fidoyilik hidi.

HOVLIDAGI ISHKOM OSTIDA olmosdek tovlanuvchi uzumlarga ko'zi tushadi uning. Ularni go'yo kimdir bir zamonlar go'dak Temurga ilinganday. Go'yo bu hujralarda tunlar davomida moychiroq yorug'ida o'tirib, Navoiy so'zlari bilan xayol surgan, Bedil ash'orlaridan hikmat izlagan insonning nafasi hali ham bordeklar. Ko'rpachalar huzuri - uning uchun og'ush. Bunday oromni bugunning hech bir hashamati bera olmaydi unga. O'zbek dasturxonining odmi, ammo ta'mi og'zingizdan ketmas taomlari, mehmonga bo'lgan ixlos - bularning barchasi Temurxo'ja o'g'li yuragidagi unutilmas qo'shiqdirdi.

Bu insonning so'zlarida nazokat, fe'l-atvorida sharqona hayo ustuvor. Muloqotda ochiq, samimiy va dilbar. O'zbek tilida ancha ravon gapiradi. Uning tabassumi, yonoqlaridagi kichkina kulgichlari ham o'ziga yarashiqli. Katta-yu kichik ismiga "jon" qo'shimchasini qo'shib

USMONXO'JA PO'LATXO'JAYEV BEHBUDIYNING SHOGIRDI EDIMI?

Ruhim "shayton" qo'shiqlardan toliqqan kunlardan birida qulog'imga ona allasidek yoqimli, shu bilan birga siyrati fig'onga botgan tarona chalindi. Ohang avvaliga shivirlaganday, keyin tobora yurakning tubiga cho'kib, tomirlarda suzgandek bo'ladi:

gapiradigan odati bor. Unda viqor ham bor, samimiylik ham va shu bilan birga qalbga kiruvchi nurli nazar ham.

Vatan - mening ichimda!"

Ko'pdan buyon u bilan muloqot qilmoqni niyat qilib yurardim. Bultur Buxoro innovatsiyalar universitetida ikki marta u bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Lekin o'z tashvishlarim bilan bo'lib borolmadim. Taqdir menga bir kun shunday inoyatni tuhfa etdi. Ustoz bilan suhbatimiz uning otasi Usmonxo'ja Po'latxo'jayev faoliyatini va jadidlik harakati to'g'risida bo'ldi. Undan dastlab, muhojirlikda yashagan oilada tug'ilib, o'sha muhitda kamolga yetgan holda o'zbek tilida ravon so'zlasha olish, qadriyatlarga sodiqlik siri nimada ekanligi to'g'risida so'radim. Zero o'zga ellarda dunyoga kelib, millat sifatida o'zligini yo'qotganlar kammi?

Bir paytlar Turkiyada tahsil olgan yosh yigit o'tgan asrning 60-yillarda turk shoiri Kemaletdin Kamuning "G'urbat" nomli she'ridan qattiq ta'sirlangandi:

"Men g'urbatda emasman, g'urbat menin ichimda..." degan misralar uni bir muddat lol qoldirdi. Axir, o'z yurtida, o'z xalqining orasida yashagan bir inson qanday qilib o'zini g'urbatda his qilishi mumkin? Bu savol unga o'sha payt javobsiz tuyulgandi. Lekin oradan yillar o'tib, shu satrlar yosh Temurga hayot haqiqatini anglatdi.

1990-YIL, TOSHKENT. Navoiy nomidagi davlat akademik teatri - gavium. Ittifoq hali parchalanmagan, lekin mustaqillik tuyg'usi xalq yuragida alanga ola boshlagan. Temurxo'ja o'g'li O'zbekistonga ilk bor tashrif buyurgan, mehr to'lgan ko'zlar bilan ona yurtini taniy boshlagan palla. To'satdan minbarga chaqiriladi. Oldindan tayyorlangan nutq yo'q, qalbida esa bor-yo'g'i bitta tuyg'u - sog'inch. Shunda u sahnaga qadam qo'ya turib, yoshligidan to shu kungacha qalbida yashagan va qiyomiga yetgan so'zlarni ifodalaydi:

"Men Vatanda emasman - Vatan menin ichimda!"

Bu so'zlar teatr zalida to'lqin-to'lqin bo'lib tarqaldi. Olqishlar bir necha daqiqa to'xtamadi. Chunki bu satrlar o'sha vaqtida "Vatan" deyishga cho'chigan, lekin yuragi erkinlikka orzumand minglab insonlarning qalbi tubigacha yetibborgani rost.

- Hamzabekjon, Vatanning asosiy qadr-qimmati uni yo'qotganda kuchliroq tuyuladi insonga. Vatan faqat geografik hudud emas. U - bolalikda eshitilgan allalar, onam tilida aytilgan ertaklar, otamning tilidan singgan Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Elbek she'rlaridir. Vatan - bu xotira, qalb, til va inoyat. Unga bo'lgan muhabbat chet elda yurgan inson uchun yanada ezgu, yanada muqaddas ko'rinalaveradi. Ayniqsa, millat tuyg'usidan mahrum qilingan avlod uchun, - deydi Temurxo'ja o'g'li beg'ubor tabassum bilan.

Olim Istanbul universitetida Shayboniyxon va uning devoni haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. AQShdag'i Kolumbiya universitetida esa o'zbek va qozoq zamonaviy adabiyoti borasida doktorlik dissertatsiyasini yozgan. Bir qarashda bu shunchaki ilmiy faoliyatday tuyulishi mumkin, ammo buning ortida milliy burch, yuksak madaniy o'zlik

yotganini anglash qiyin emas.

Cho'qqidagi matonat

O'tmishta xayolan sayohat qilar ekanman, Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning qaddi tik siyosini ko'rgandek bo'laman. Uning tabiati suratlarda ko'ringani kabi vazmin va ulug' vor bo'lganmikan, degan savol miyamda charx uraveradi.

- Otam uy ichida ham, tashqarida ham juda samimiy va muloyim muomalada bo'lar edilar. Men uning biror marta ovozini baland ko'targanini, kimgadir baqirganini yoki qattiq gapirganini eshitmaganman. Agar kimdir uning fikriga qo'shilmasa, bundan achchiqlanmas, balki turli misollar bilan o'z qarashlarini tinch va asosli tarzda izohlab berishdan charchamasdi. Juda sabrli, chidamli inson edi. Hech qachon shoshmas, doimo vazmin va o'yangan qadam tashlar edi. Onam yoki biron kishi xafa bo'lib qolsa, otam har doim

"Ko'p g'am yema, yeganingdan ham kam yema!" deb ruhlantir edi, - deydi Temurxo'ja o'g'li.

Usmonxo'ja boy va ma'rifatparvar oilada tug'ilgan. Bobosi Karomatullo Xo'ja va otasi Po'latxo'ja Buxoroning yirik savdogarlaridan edi. Ammo Usmonxo'ja savdo bilan emas, ilm va ma'rifat bilan shug'ullandi. U yoshligidan otasi olib kelgan "Tarjimon" gazetasini, tatar, Ozarbayjon va Usmonli turk matbuotiga qiziqib, ular orqali fikr va dunyoqarashini boyitib bordi. Maktab ta'limidun tashqari u uyiga kelgan xususiy muallimlardan matematika va boshqa fanlarni o'rgandi. Yoshligida Andijon qo'zg'onlonda qatnashgan va Chor Rossiysi tomonidan qo'lg'a olinib, Buxoroga topshirilgan. 1916-yilda esa Turkiston umumqo'zg'onlomini tashkil etishda Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqalar bilan birga faol qatnashgan.

YOSH BUXOROLILAR harakatining namoyandası sifatida u Buxoroda tuzilgan yangi hokimiyatning yetakchilaridan biri bo'ldi. Dastlab Fayzulla Xo'jayev va boshqa safdoshlari bilan islohotlarda faol ishtirot etdi. Biroq o'zini do'st qilib ko'rsatgan, va'dasi boshqa-yu amali boshqa bo'lgan bolshavoylarning munofiqona siyosatidan hafsalasi pir bo'lib, ularga qarshi chiqdi. Usmonxo'ja hayotining keyingi fasllarini muhojirotda o'tkazdi. 1951-1957-yillarda Pokistonda yashar ekan, har yili yozda sakson yoshida bo'lishiga qaramay, Pomir tog'lariga chiqib, u yerdagi qirg'izlar orasida bir necha oy yashardi. Bu uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy chidam va jasoratidan ham dalolat beradi.

Temurxo'ja 1986-yilda Turkiyaning Von shahrida Pomirdan ko'chirib keltirilgan qirg'izlar bilan uchrashdi. "Usmonxo'ja har yil toqqa chiqib, 3-4 oy u yerda nima qilar edi?" deya Rahmonqulxon qo'rboshidan so'raydi. Javob shunday bo'ladi: **"Bu sirdir. Tafsilotini ayta olmayman. Ammo Turkistonning ozodligi bilan bog'liq ishlar, deb aytsam bo'ladi."**

Usmonxo'ja umrining ilk 45 yilini Vatan ichida jadidlik, ma'rifatparvarlik, ozodlik va istiqloq uchun bag'ishlagan bo'lsa, qolgan 45 yilda muhojiratda ayni shu g'oyalari uchun kurashni davom ettirdi. U o'limi oldidan o'g'lini oldiga chorlab, shunday so'zlarni aytgandi:

- O'g'lim, men senga uy-joy yoxud mol-u davlat qoldirmadim. Kun kelib ozod

bo'lishi kerak bo'lgan yurtimning diydorini qoldiryapman. Menga Vatanimning hurriyatga erishganini ko'rmoqlik armon bo'ldi, illo u kunlarni sen ko'rajaksan!

Jadidlikdan xato izlanmaydi, xulosa qilinadi

Turkiston jadidlari yutuq va kamchiliklari nimalarda ko'rindi? Ular o'z g'oyalarda yakdil edilarmi? Jadidlardan ustidan hukm chiqarayotgan bugungi avlod o'z fikrida qanchalik haq yoki nohaq? Bu savolni tarixchilarga ham bir necha marta bergenman.

YOLG'IZ TURKISTON EMAS, balki Volga-Ural, Qrim, Ozarbayjon, Sharqiy Turkiston jadidlari ham qisqa bir davr ichida muhim yutuqlarga erishdilar. Ular 1860-1930-yillarda oralig'ida olib borgan faoliyatlar orqali nafaqat o'z zamoni, balki undan keyingi avlodlar uchun ham ulug' milliy meros qoldirdi. Bu merosning bir qanoti ilg'or ma'rifat va madaniyat bo'lsa, ikkinchisi demokratik tuzumga intilishdir. Jadid merosi fashistik va kommunistik tuzumlariga mutlaq zid bo'lgan harakat edi. Shu bois Sovet ittifoqidagi diktatura jadidlikka qarshi murosasiz kurash olib bordi va bu demokratik harakatni yo'q qilishga intildi. Ammo jadidlardan, ayniqsa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'lif-tarbiya sohasida ulkan yutuqlarga erishdi. Ular yoshlar va kattalar o'rtasida savodxonlikni oshirdilar, jadid maktablarida eng ilg'or pedagogik usullarni joriy qildilar.

Bu harakat zamonaviy adabiyot, teatr, musiqa, raqs, rasm, san'at, tilshunoslik, folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va boshqa ko'plab sohalarda ham yangi yo'nalishlarni yuzaga keltirdi. Jadidlardan o'z milliy g'oyalariiga sodiq bo'lish uchun qatag'on qilinguncha tinimsiz mehnat qildilar. Ular o'zaro asosan hamfikr va yakdil edilar. Ammo sovet tuzumi ularni bo'lish, bir-biriga qarshi qo'yish uchun turli hiyla-nayranglardan foydalandi. Shunga qaramay, jadidlardan orasida o'z g'oyalariiga xiyonat qilganlar juda kam edi. Ustoz Temurxo'ja o'g'lining fikricha, jadidlardan ulkan yutuqlarga erishgani barobarida, ularning kamchiliklarini xolisona o'rganish ham mushkul. Chunki tarixdagagi eng dahshatli diktatura - sovet rejimi soyasida turib, jadidlikdagi xatolar axtarish - insofsizlik.

O'lkaga qo'shib qalblarni ham parchaladilar

100 yil burungi tarixga, xossatan, bugungi nazar bilan baho berish o'rinni bo'lmaydi. Ota-bobolarimiz xatolari davr taqozosimidi yoki mustabid tuzum changalidan qutulish uchun ularda sharoit yetarli edimi, degan savol hamon bahslarga sabab bo'layotir.

Jadidlik harakati boshlangan paytda bu o'la tanazzulning eng chuquq davrini boshidan kechirayotgan edi. Ayniqsa, XVII-XIX asrlar oralig'ida Turkiston, Volga-Ural, Qrim, Sibir, Qafqaz va Ozarbayjon o'lkalarini bir-biridan uzilgan, turli xonlik va amirliklarga bo'lingan holda, o'zaro yer va nufuz talashib yashar edilar.

Bu orada Yevropada industrial inqilob yuz berdi - ular kema yo'llari orqali Afrika va Osioni bosib olib, mustamlaka siyosatini yurgizar, tabiiy boyliklarni o'z yurtiga tashib ketar edi. Ana shu tarixiy burilish pallasida Rus knyazligi ham

kuchayib, Rus davlatiga aylandi. 1552-yili Qozon, 1556-yili Astraxan xonliklari tor-mor qilindi, keyingi ikki asrda esa Qafqoz va Sibir bosib olindi. XIX asrga kelib, Rossiya imperiyasi Qozog'iston orqali Turkiston tuproqlariga qadam qo'ya boshladi.

SHU BILAN BIRGA, Turkistonning janubidagi uchta davlat - Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligi o'zaro nizolar bilan band bo'lib, Rossiyaning bosqiniga yetarlicha e'tibor qaratmadni. Qozoq xonliklarida ham ittifoq va birlik yo'q edi. Holbuki, Chor Rossiyaning Turkistonni bosib olishi ikki asrga yaqin davom etdi. Ana shunday qarama-qarshiliklarga qarshi jamiyat ichidagi uyg'onish harakati – jadidlik paydo bo'ldi. Bu harakat turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy uyg'onish, o'zlikni anglash va mustamlaka zulmiga qarshi fikriy kurashning timsoliga aylandi.

Rossiya Qo'qon xonligini batamom yo'q qildi. Xiva va Buxoro esa rasman mustaqil bo'lgani bilan, amalda vassal davlatlarga aylantirildi. Turkistonning shimoli Dala gubernatorligi, janubi esa Turkiston general-gubernatorligiga aylantirilib, mintaqaning birligiga putur yetdi.

Bu vaziyatda, na Chor Rossiysi, na keyinchalik bolsheviklar davrida mustamlakachilik changalidan qutilish uchun zarur siyosiy va harbiy sharoit mavjud emas edi.

1917-yildagi harakatlар natijasida vujudga kelgan Turkiston muxtoriyati va Alosch-o'da hukumatlari qisqa fursat ichida harbiy yo'l bilan tor-mor etildi. Qo'qon shahri bombalandi, qishloqlarda ommaviy qirg'inlar amalga oshirildi. Turkiston xalqlarining o'z armiyasi yo'q edi. Ular himoyasiz edilar.

Manu shu sharoitda ota-bobolarimiz qilgan xatolarni faqat ularning irodasiga yuklash adolatdan bo'lmaydi. Tarixdagi og'ir tanlovlar zamona hukmi va sharoitlar taqozosi edi, desak to'g'ri bo'ladi.

"Kommunizm vayron bo'lajak!"

Taniqli yozuvchi Nabijon Boqiy o'zining "Chingiz afandiga maktublar" kitobida Usmonxo'ja va Anvar Posho kabi shaxslarning bolsheviklarga ishonmaganini ta'kidlaydi. Lekin savol tug'iladi: bu ishonchsizlik faqat intuitsiyami, shaxsiy tajriba yoki tarixiy xulosalar mahsulimiidi?

Usmonxo'ja 1921-yilning dekabr oyida Sharqiy Buxoroda bolsheviklar garnizonini qurshovga olgani tarixga "Dushanbe voqeasi" nomi bilan kirgan. Temurxo'ja o'z otasining pozitsiyasini ushbu voqeaga baho berilgan uchta adabiy asar va shu asosda yaratilgan badiiy filmlar talqinida javob berishga harakat qiladi.

Dushanbedagi sovet garnizoni qamal qilinishi va uning qo'mondonlari hibsga olinishi bilan bog'liq tarixiy haqiqatlarga ittifoq tarixchilari o'z asarlarida sukut qilsalar-da, badiiy asarlarda talqin etilishi katta jasoratdir. Bular taniqli o'zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning "Qil ko'pri" romani, tojik yozuvchisi Jalol Ikromiying "Gornizon taslim bo'lmaydi" pyesasi hamda tatar adibi Tavfiq Aydi qalamiga mansub "Ilon zahri" romanini misol keltirish mumkin. O'z davrida bu asarlar asosida badiiy filmlar ham yaratilgan.

Usmonxo'ja bolsheviklar yuborgan elchilar – Nagorin va boshqa harbiy qo'mondonlarga qarata shunday degan: "Buxoroda bo'lgan to'ntarish sotsialistik emas, demokratik inqilob edi... Va shuni ham unutmangki, kommunizm, albatta, vayron bo'lajak!"

Bu so'zlar tasodif emas. Ular Usmonxo'janing shaxsiy e'tiqodi, siyosiy hushyorligi va kelajakka oid xulosalarini ifoda etadi. Usmonxo'ja bolshevizmga ishonmasligi tasodif emas. Bu uning shaxsiy tajribasi, tarixiy tahlili va teran tafakkuri mahsuli edi.

Kech anglangan haqiqat

O'tgan asr boshlarida Usmonxo'ja Po'latxo'jayev va Fayzulla Xo'jayev siyosiy jarayonlarda yelkadosh edilar. Ikkalasi ham

millat taqdiri uchun qayg'urgan, milliy mustaqillik g'oyasida yashagan shaxslar edi. Ammo tez orada ular ikki turli yo'lni tanladi: Usmonxo'ja mustamlakachilikka murosasiz kurashni afzal ko'rди, Fayzulla esa bolshevizmni "muvaqqat platforma" deb bilib, uning ichida qolishga qaror qildi. Bu esa tanlov emas, majburiyati edi. Shunday ekan, nega amakivachchaning anglagan haqiqatini jiyanning tushunib yetishi uchun o'n yillarda vaqt kerak bo'ldi?

Jadidlar bolsheviklarga ishonmagan. Ular o'rtasida ishonch emas, balki strategik tanlov bor edi. Ba'zilar – Usmonxo'ja, Mustafo Cho'qay kabi yetakchilar murosasiz kurashni tanladi. Ular mustamlaka zulmiga qarshi ochiq front ochdi. Lekin ular ozchilik edi. Jadidlarning katta qismi esa o'z g'oyalarini sovet tizimi ichida amalga oshirishga urindi – umid bilan, shubha bilan, ikkilanish bilan. Bugungi kunda bu tanlovnin ayblash tarixga nisbatan behurmatlikdir. Ularga sharoit tanlash imkonini berilmagan. Bir tomonda tinqinli siyosiy tunnel, ikkinchi tomonda esa qurolli bosqinchi rejim. Muhimi, Turkistonda na milliy armiya bor edi, na tashqi yordamga umid.

Hatto, Ozarbayjonning qisqa umr ko'rgan mustaqil jumhuriyati ham Usmonli armiyasining harbiy yordamida tuzilgandi. Lekin 1920-yilda Usmonli armiyasi ketishi bilan Bokuga bolsheviklar kirib keldi va bu davlat ham yo'q qilindi. Shu misolning o'ziyoq Turkiston taqdiri nima uchun shunday kechganini ko'rsatib turadi.

TURKISTON JANUBIDAGI bosmachi harakat ham, afsuski, taraqqiy etmagan milliy armiya emas, balki tarqoq va siyosiy qarashlariga ko'ra ikkiga bo'lingan to'daldardan iborat edi. Ulardan biri Buxoro jumhuriyatini qo'llab-quvvatlasa, ikkinchisi Afg'onistonga qochgan amir Olimxon tarafdfori edi. Boshqacha aytganda, dushmanqa qarshi ittifoq emas, bo'linma, yakdillik emas, ixtilof bor edi.

Hatto, Buxoro armiyasi 1921-yilda Dushanbeda bolshevik garnizoniga hujum qilganida, Ibrohim Laqay boshliq bosmachilar ularga orqadan zarba berib, bolsheviklarga oziq-ovqat bilan yordam bergan. Bu xato keyinchalik Ibrohimbekning o'ziga ham qimmatga tushdi.

Shunday sharoitda millatparvarlarning bir qismini qoralash, ularning tanlovini "xato" deb baholash, tarixni bir tusda ko'rish demakdir. Haqiqat shundaki: ularning har biri halokat yegasiga kelgan millat uchun qo'lidan kelganini qilgan.

Murosa yo'li yopiq, ammo ittifoq umidi bor edi...

Tarixning eng tor va og'riqli yo'llarida ham murosaga chorlovchi ovozlar bo'lgan. Ammo ba'zan bu ovozlar o'tmish g'ovlarida g'arq bo'ladi. Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati bosmachilar bilan murosa qilmagani ta'rif qilinadi. Usmonxo'ja Po'latxo'jayev ana shu siyosiy murakkabliklar girdobida, yakdillik izlab Dushanbega yo'l olgan edi. 1921-yilda u sharqiy Buxoroda bo'lg'usi ittifoq uchun harakat qilardi: bosmachi to'dalarni birlashtirish, hatto Amir Olimxon tarafdforlarini ham shu sa'y-harakatga jalb etish istagida edi. Ammo ishonchsz muhitda ba'zilar, xususan, Ibrohim Laqay, bu harakatni shubha bilan kutib oldi. U hatto Anvar Poshoni qamoqqa olishgacha bordi. Har kim o'z haqiqatini da'vo qilardi. Natijada, bir millatning eng jasur, ammo parokanda o'g'lonlari bir-biriga qarab qat'iy qadam solmay goldi.

TARIX BA'ZAN INSONIYATGA OG'IR SAVOLLAR QO'YADI: kurashmi yo murosa? Tanlash esa har kimning o'z zimmasida. Usmonxo'ja Po'latxo'jayev esa bu savolga bir umrlik javob bergen odamlardan. Unga yaqin inson – o'g'li Temurxo'ja o'g'lini tinglar ekansiz, shu haqiqatni qayta va qayta his etasiz: Usmonxo'ja o'z hayotini bir marta emas, ko'p marta o'z xalqi ozodligi uchun tikkan inson edi.

– Men tanigan Usmonxo'ja bundan boshqa yo'l tanlayolmasdi, – deydi Temurxo'ja teran ishonch bilan.

Haqiqatan ham, shunday ekanligi uning hayot yo'lidagi muhim burilishlardan ko'rindi:

20 yoshida Dukchi Eshon qo'zg'olnida qatnashgan, 38 yoshida Turkiston umumqo'zg'olnida, 40 yoshida Buxoro amirligidagi Islohot namoyishida, 43 yoshida Buxoro jumhuriyati rahbari sifatida armiya tashkil qilgan va shu armiya bilan bolsheviklarga qarshi harakat qilgan.

U hatto, qurol-aslaha olish umidida Afq'oniston orqali Angliya bilan muzokara olib borish darajasiga yetib borgan. Temurxo'ja bu holatni hech qanday bo'rttirmasdan, tarixiy manzarani chizadi:

– Turkistondagi bosmachi ittifoq qilib birlashmagan, ularda kuchli armiya mavjud emas edi. Bunday sharoitda sovet harbiy kuchiga qarshi boshqacha ssenariyni tasavvur qilish mushkul.

Ziyolilar qadami uzilmagan xonodon

Usmonxo'janing hayoti nafaqat tarixga daxldor, balki bugungi avlod uchun ham ma'naviy merosdir. Uning xonadoni, Temurxo'janing xotiralari ko'ra, mustaqillik orzusini yurakdan his qilgan, ammo yurtdan uzoqda yashashga majbur bo'lgan ziyyolilar uchun maskan bo'lgan.

Usmonxo'ja Turkiyada, Eronda, Pokistonda – qayerda bo'imasin, o'z atrofiga mushtarak taqdirlari hamyurtlarini to'play olgan. Ularning orasida Mehmet Amin Rasulzoda, Mustafo Cho'qay, Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Ayoz Ishoqiy, Shermuhammadbek q'rboshi va boshqalar bor edi. Temurxo'ja bolaligi shu insonlar davrasida o'tganini faxr bilan aytadi. U ba'zilar bilan yuzma-yuz ko'rishgan, ba'zilar esa otasining vafotidan so'ng ham, unga otasining ma'naviy merosini ularshagan.

– **Esdaliklarim ko'p, ularni yozishni mo'ljallamoqdamon,** – deydi u.

Bunday xotiralari – bugun yozilmasa, ertaga yo'qoladigan boylikdir. Ular nafaqat Usmonxo'janing shaxsiyatini, balki butun bir davrning ruhiy muhitini, mushtarak dardi va umidini tasvirlaydi.

Tarixiy hujjat

Shak-shubhasiz, XIX asrning so'nggi va XX asr boshida Turkistonda fikriy kurashlar va ma'rifikat urinishlari jadidlar safida jonlandi. Bular safida esa ikki buyuk shaxsnинг nomini alohida tilga olish zarur: Mahmudxo'ja Behbudiy va Usmonxo'ja Po'latxo'jayev. Ular orasidagi munosabat "Ustoz-shogird" an'anaviy tushunchasidan ko'ra, kengroq va ta'sirchadir. Temurxo'ja o'g'li bu ikki shaxsnинг munosabatlarini ochib berishga harakat qiladi. Uning ta'kidlashicha, garchand Usmonxo'ja Po'latxo'jayev 1878-yilda, Behbudiy esa 1875-yilda tug'ilgan bo'lsa-da, ular fikriy jihatdan bir avlodga mansub edilar va o'z zamonasining og'riqlarini barobar his qilgan edilar.

MANBALARGA KO'R'A

Behbudiyning ta'siri Usmonxo'janing jadidlikdagi faoliyatida mustahkam iz qoldirgan. Usmonxo'janing shaxsiy daftarida 1916-yildagi Turkiston umumqo'zg'olnida haqida shunday yozuv mavjud: "Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlaridan telegram keldi, meni tezda Samarqandga chaqiryapti. Chor Rossiysiga qarshi boshlangan isyonlarni kuzatish uchun Samarqandda yig'ilish bo'ladi. Men ham tezda yo'lga chiqdim".

Bu gaplar ularning fikriy birdamligini emas, balki amaliy siyosiy sherikligini ham ko'rsatadi.

Temurxo'ja o'g'li 2001-yilda o'zining "Usmonxo'ja armug'oni" kitobini nashr etish jarayonida yana bir tarixiy kashfiyot yuz berdi. Turkiston tarixi uchun muhim bo'lgan va ungacha noma'lum bo'lib kelgan bir hujjat – Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan 1907-yili Rossiya Dumasiga taqdim etilgan "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasi qo'lyozmasi topildi. Bu qo'lyozma ayni



damda O'zbekiston jadidshunosligining muhim manbasiga aylangan.

Hikoyaning eng dramatik qismi esa ushbu hujjat qanday qilib saqlanib qolgani bilan bog'liq. U dastlab jadidlik harakatining namoyandalaridan bira, taniqli tatar mutafakkiri Ismoilbek Gaspirinskiyning arxiviga tushgan. Keyinchalik uning qizi – jadid ayollar orasida tanilgan Shafiqa xonim Qizil armiya tahdididan qochib yurgan paytda, bolalari va arxivida bilan birga Turkiyaga elchixona vositasida yetib borgan. Ana o'sha arxiv orqali tarixiy hujjat keyinroq turk tarixchisi Najip Hablemit o'g'li qo'liga o'tadi.

Temurxo'ja o'g'li 2000-yilda ushbu arxivida Turkistonga oid ma'lumotlar bor-yo'qligini so'rab murojaat qilganida, unga ushbu qo'lyozmaning rangli fotosuratlari yuboriladi. Ularni "Turkistonda yangilik harakatlari va inqiloblar 1900–1924: Usmonxo'ja armug'oni" nomli kitobida ilk bor nashr etadi.

BU TARIXIY KASHFIYOTDAN

KEYIN O'zbekistondagi jadidshunos olimlar, jumladan akademik Begali Qosimov va Naim Karimovlar ham ushbu matn bilan tanishib, uni mamlakatimizda qaytadan chop etishdi. Mazkur hujjatning tasodifiy saqlanib qolishi, jadidlik harakatining fidoyi farzandlari faqat g'oya bilan emas, balki hujjat, ta'lif, ma'rifikat va amaliy harakat bilan yashaganini tasdiqlaydi. Shuningdek, u Mahmudxo'ja Behbudiy va Usmonxo'ja Po'latxo'jayev o'rtasidagi mustahkam fikriy aloqalar va tarixiy hamkorlikning yana bir dalilidir.

"Men u kunni ko'rolmayman"

Usmonxo'ja Po'latxo'jayev chet ellarda o'tkazgan 45 yillik muhohirat umri davomida birzum ham yuragida Turkiston orzu-sog'inch'i so'nmagan edi. Uning har bir chiqishi, har bir nutqi, har bir yozgan so'zida bitta orzu yaqqol eshitilardi: bir kun kelib, Turkiston o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, erkin, mustaqil xalqlar yurtiga aylanadi!

Uning hayoti, faoliyati mustamlaka to'rlarini parchalab, ma'rifikat va ozodlik fidoyisiga aylangan bir avlod vakili sifatida o'tdi. Bir necha bor xalqaro anjumanlarda ham ana shu orzusini e'lom qilgan. Temurxo'ja otasining unga qilgan so'nggi vasiyatni farzand qalbini larzaga keltirgan eng ezgu, eng ta'sirli so'zlardan bira bo'lganligini eslaydi.

"Kelgusida Turkiston ozod va mustaqil bo'ladi. Men u kunni ko'rolmayman, lekin sen, albatta buni ko'rasan va Vatanga borib yurasan! Vatandagilar seni muhabbat va sog'inch bilan quchoqlab oladilar..."

Bu so'zlar o'zida umid va alamni, muhohirat iztirobini va istiqbol shodiyonasini mujassam etgan tarixiy vasiyat edi.

ILLYUZIYA

ORTIGA BERKINGAN HAQIQAT

Bir kuni ishdan charchab kelib, uy-ro'zg'or ishlaridan tin olgach, biroz bo'lsa-da, charchog'imni chiqaray, deb 10-15 daqiqa Instagramdagi sahfamga kirdim. Ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, ayni paytda trendga chiqqan kontentlarni kuzatib o'tirdim. Birozdan so'ng ne ko'z bilan ko'rayki, 10-15 daqiqa sarflamoqchi bo'lgan daqiqalarim soat millarida uchib o'tib ketganini sezmay qolibman.

Vaqt bunchalik shiddat bilan o'tib ketganini ko'rib, dahshatga tushdim. Nahot biz qimmatli soniyalarimiz shunchalik katta tezlikda uchib ketishini qo'limizdagi "mitti qurilma" sabab sezmay qolyapmiz?

Endi bu gadjetlar nafaqat shaxsий hayotimiz, balki insoniylarimizni ham mahv etib ulgurdi. Bugungi ilm-fan mo'jizasi endi, o'zi uchun xavfdan tahdid bosqichiga o'tganini o'yab qoldim. Shu kecha tunda ko'zimga uyqu kelmadi. Bolalik paytlarimni esladim... Nega ilgari kun uzun, tun uzoq bo'lardi-yu, endi kun va tun rejalashtirilgan ishlarni bajarishga yetmay qolyapti? Mana shu smartfon men kabi qanchadan qancha kishilarning qimmatli vaqtini o'g'irlayotgani haqidagi savollar xayolimdan ketmadi.

Ayni vaqtida ijtimoiy hayotning bir bo'lagiga aylanib ulgurgan internet hamda ijtimoiy tarmoqlar kishining real olamidagi xatti-harakatlari va munosabatlarining raqamlı olamga ko'chishi ortidan Yer yuzini o'rgimchak to'ridek o'rabi ulgurdi. Yirik statistik va tahliliy ma'lumotlar berib boruvchi "We are social UK" internet manbasini o'rganish vaqtida markazning yillik statistik hisob-kitoblariga qaraganda, dunyo aholisi **8 milliard 100 milliondan** oshiq bo'lib, ularning **57 foizi** shahar hududiga to'g'ri keladi. Shundan mobil aloqadan foydalanuvchilar soni **5,44 milliardni** tashkil etib, bu miqdor dunyo aholisining **68 foiziga** teng. **5,16 milliard** internet foydalanuvchisi Yer yuzi aholisining **64,4 foizini** tashkil etadi. Butun dunyo bo'yab **4,76 milliard** inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Bu esa foiz hisobida dunyo aholisining **63,9 foiziga** teng degani. Aniq raqamlardan, ishonchli ma'lumotlardan ayonki, uni ijtimoiy hayotdan sug'urib tashlab bo'lmaydi.

Internetdagi baxtlilar

Bugun ilm-fan yutuqlari tufayli har kuni menga o'xshagan minglab, millionlab va milliardlab kishilar internet hamda ijtimoiy tarmoq sahifasiga hech bo'lmaganda 10 daqiqa vaqtini sarflaydi. Bu vaqtini iste'molchi sifatida sarflovchilar ham ko'p. Lekin o'zining

turmush tarzini daromad ortitish maqsadida "reality-shou"ga aylantrib borayotgan kishilar soni ham kun sayin ortib bormoqda.

Avallari kishilar sevimli ishiga yoki yushmaniga ega bo'lishi, oila qurishi, farzand ko'rishi, turmush o'rtog'i bilan imorat qurishi yoxud farzand va ota-onasi o'rtasidagi mehr-oqibat rishtalari baxt sifatida qaralgan bo'lsa, **bugunning kishilar o'zgalarining "ekran" orqali hayotida sodir bo'layotgan ishlarni "baxt" deb hisoblashmoqda.**

O'zgalar hayotini smartfon va gadjetlar ortida kuzatib o'tirgan kishilarda endi o'qishi, ishi, kasbi, farzandlari, ota-onasidan tortib turmush o'rtog'idan ko'ngli to'lmaslik hamda norozilik kayfiyati, ya'ni **shaxsий hayotida "baxtsizlik garmoni - baxtsizlik kayfiyati" uyg'onmoqda.** Endi zamoniylar ota-onalar o'z bolalarining tashqi qiyofasidan tortib, jismoniy holatigacha yaqqol o'zgalarining farzandlariga nafaqat taqqoslash, balki ularni o'rniqa qo'yib, solishtirish holatlari kuchaymoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda o'zining millionlab obunachilariga ega bo'lgan navqiron bloger va vaynerlar tomonidan shaxsий sahifasini rivojlantirish maqsadida "giv", reklama va "reels"lardan orttirgan daromadlaridan o'zining yaqinlariga berayotgan qimmatbaho sovg'alarini hadya etuvchi lavhalarni farzandlariga ibrat va namuna sifatida ko'rsatish holatlari kun sayin ortib bormoqda.

Yoki "instayulduzlar" tomonidan kunlik joylab boriluvchi kontentlarda ertalabki nonushtalari, kiyim-kechaklari, o'zgalar tomonidan yuborilgan xufiyona gul, qimmatbaho sovg'alar, avtomobil, uy yoki "omadli farzand"lar tomonidan berilgan Umra va Haj safarlar, xorijga sayohat chiptalari sovg'a qilinishi kabi lavhalarning doimiy kuzatuv ko'rsatkichi yuqori. Natijada **oddiy tomoshabin bo'lgan kishilarning kun sayin o'z shaxsiy hayotidan norozilik kayfiyati hamda qalb isyonlari endi real hayotga ko'chib, haqiqiy isyonlarni, haqiqiy baxtsizlikni keltirib chiqarish holatlari tez-tez kuzatilmoxda.**

Oldingiday to'kin dasturxon bo'lmasada, oilaviy baxt, xotirjamlik, mehr-oqibat to'la bo'lgan oilarlari endi to'kin dasturxon atrofida o'tirishsa-da, yaqinlarga nisbatan mehr-oqibatni, oildagini halovatni yo'qotmoqda. Virtual olamdagagi hashamat ularning hayotini go'yoki baxtsizlik jariga tashlamoqda.

Kishilar hayotining bir bo'lagiga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarda baxtli hayot lavhalari ketidan ayrim odamlar daromad orttirayotgan bo'lsa, sarobni ro'yo deb bilgan minglab, millionlab oilalarining parchalanishi, ajrim yoqasiga kelib qolishiga turki bo'lmoqda.

Ijtimoiy tarmoqdagi baxt saroqlari

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar - bu faqatgina haqiqat emas, balki illyuziya va sarob makoni. **Har kuni kuzatayotganimiz, ko'rib turganlarimiz - aslida, real**



hayotdan uzoq, faqat "tarmoq uchun" yaratilgan sahna bo'lishi mumkin. Instagram va Telegramdagi qahramonlarimiz, ularning uy-joylari vaqtinchalik, ofislar ijara, boshqarayotgan mashinalari ma'lum soatga band qilingan, yuborilgan gullar ham soxta, berilgan taqinchoqlar ham vaqtinchalik, "reels"larida timimsiz qo'yiladigan xorijiy safarlar esa faqat tarmoqdagi kontent, prosmotr va "oxvat"ni oshirish uchun bo'lishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmaymiz.

Bu narsalar, aslida haqiqiy baxt va muvaffaqiyat emas, bu faqatgina illyuzion dunyo, ko'pincha faqat tarmoq uchun yaratilgan baxt sarobi bo'lishi haqida tasavvur ham qilib ko'rmaymiz. Chunki ularni tomosha qiluvchi kuzatuvchilar soni oshsa, reklama qabul qilish imkoniyati ortadi, "reels" yoki "storis"larning narxari ko'tariladi. Ular tomonidan yaratilgan "Millioner bo'lish sirlari", "Baxtga erishish yo'llari" va "Muvaffaqiyat kurslari" esa ko'pincha moliyaviy va ma'naviy muvaffaqiyatni emas, balki e'tiborni jalb qilish va daromadni oshirish uchun xizmat qiladi.

Bu kurslar, aslida sizning hayotiningizda hech narsani o'zgartirmaydi, faqatgina ularni reklama qilish uchun muhimdir. Lekin biz ijtimoiy tarmoqlardagi bu "baxt saroqlari"ni tan olamiz. Aslida, haqiqiy baxt va muvaffaqiyat faqatgina tashqi ko'rinish va kontent bilan emas, balki ichki dunyo, insoniy qadriyatlar va haqiqiy hayotda namoyon bo'ladi. Bizga ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatilayotgan hayotga e'tibor qaratishda haqiqiylik va illyuziyaning farqini anglash juda muhim.

Sahroda kishi kuchsizlansa va chanqasa unga suv havzalari hamda mo'jaz joylar ko'ziga ko'rinish ketaveradi. Borib yaqinlashganda esa sarob ekanini anglab yetadi. Ijtimoiy tarmoq ham shunday: hayotizingdan, turmush tashvishlaridan toliqdingizmi, sizga saroqlar va illyuziyalar o'z hayotizingidan afzalroq ko'rina boshlaydi. Bunda hech kimning aybi yo'q. Bu davr xususiyati, afsuski...

Bugun "dofamin tobelligi" (dofamin - miyada "rag'batlantirish" va "motivatsiya" signallarini uzatuvchi modda) davrida insonlarning baxt garmoniga bo'lgan ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda.

Ilgari bolalar velosiped uchib, to'p tepish yoki bobo-buvisining bag'rida erkalanishi, ota-ona bolasini peshonasidan o'pishi orqali miyada ishlab chiqilgan baxt garmonini, endi smartfonidagi 15-17 soniya kontentlar orqali olinayotgani ortidan insonning haddan ortiq dofamin moddasini ishlab chiqarish mumkinligi va miya tobora ko'proq dofaminga tobelashib qolishiga olib keldi. Inson avvalgidek o'z hayotida sodir bo'lgan kichik xursandchiliklaridan

quvonish, lazzat olish, xursand bo'lish hamda baxtni tuyishga qanoat hosil qilmaydigan yangi avlod vakillari vujudga kelmoqda.

Bu avlod - virtual reallik va virtual shaxsiyatlar davrida ulg'ayayotgan Zed (Zed avlod (1997-2012): raqamli texnologiyalar bilan tug'ilgan, globallashuv va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida shakllangan avlod. Ular real vaziyatga ko'nikuvchan, tadbirkor va o'zgarishlarga moslashuvchan avlod vakillari), Alfa (Alfa avlod (2013-2025): planshetlar bilan tug'ilgan, sun'iy intellekt va virtual reallik kabi texnologiyalar bilan o'sib kelayotgan avlod. Ular individualist, kreativ va texnologiyaga haddan tashqari bog'langan raqamli avlod vakillari) va Beta (Beta avlod (2025-yildan keyin): kelajak avlod bo'lib, ularning xususiyatlari hali to'liq shakllanganmagan. Ular texnologiyalarning yanada rivojlangan versiyalari, ekologik muammolar va global siyosiy o'zgarishlar ta'sirida o'sishi kutilayotgan avlod vakillari) avlodlari virtual va raqamli muhitda katta bo'lib, ular uchun shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya faqat fizik dunyoga emas, balki virtual muammolarga ham bog'liq bo'ladi.

Ular endi virtual reallik yoki sun'iy intellektning rivojlanishi ularga real dunyodan ajralgan shaxsiylik va muhit to'g'risida yangi tushunchalarni shakllanishiga olib keldi. Bu avlod vakillari borliqdagi faoliyati ilm-fan yutuqlari tufayli animatsiyalangan kontentlar olamidan tashkil topgan kibermuhitda asosiy vaqtini o'tkazuvchi kishilar jamoasiga aylanmoqda. Endi ularga insoniy munosabatlarning virtual borliqda aks etishi muhim va ularning hayotiy haqiqatiga aylanib, virtual baxt va soxta motivatsiyaga tobelashib boraveradi.

Ana shu dofamin tobeligiga tushib qolmasimizdan, internetdagi baxt saroqlariga sarxush bo'lib, kun bo'yи "reels"larni varaqlab o'tirguncha, o'z shaxsий hayotimizdagi orzu-maqсадalarimizni sarobdan ro'yogba chiqarishga sarflash uchun irodani o'zimizda shakllantira olsak, sarflagan vaqtimiz kelajak avlodimiz uchun ham ibratga aylanishimizga yordam beradi.

Zero hech qachon haqiqiy baxtni tuygan va baxtdan masrur kishilar o'z hayotidan ortib, post yozish, layk yig'ish, prosmotr oshirish, "give away" o'tkazishga vaqt topishi qiyin. Baxtli hayotni xohlovchi insonlar baxtli hayot qurish uchun harakat qiladi, baxtlilarni tomosha qilishga emas!

Nigora HUSANOVA,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi



Askar bo'lar yigitning mardi

Mustaqil diyorda tinchlik va erkinlik sharoitida yashayotganimiz milliy armiyamizdagi sa'y-harakatlar bilan chambarchas bog'liq. Yaqinda Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi tomonidan tashkil etilgan tadbirda ishtirok etib, muddatli harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashdim. Harbiy qismlardagi o'quv mashg'ulotlar, psixologik tayyorgarlik va jangovar mashqlar armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ifodasidir.



Harbiy xizmat yosh avlod uchun chinakam hayot maktabidir. Bu maktabda ular qurol ushplashdan tashqari, mas'uliyatni angaydi, zimmasidagi vazifani bajarish ortida yotgan intizom va fidoyilikni his etadi. Harbiy muhitda komandirlar ustozga, mashg'ulotlar darslikka, vazifalar esa imtihonga aylanadi. Ana shu sinovlarda toblangan yuraklar kelajakda jamiyat,

oila va Vatani oldidagi og'ir mas'uliyatlari vazifalarni dadil bajara oladigan yetuk shaxsga aylanadi. Ta'lrim tizimi vakili sifatida shuni ta'kidlamoqchimanki, armiya hayotida ko'zga tashlangan ijobjiy tajribalar, ayniqsa yoshlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishda qo'llanilayotgan psixologik usullar universitet muhitida ham samarali tarzda qo'llanishi mumkin. Jumladan, talabalar ongida ijtimoiy faoliy, jamoaviylik, milliy g'urur va javobgarlik tuyg'usini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga integratsiyalash muhim.

Bugungi armiyada intizom va jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanish, psixologik barqarorlik va mustaqil fikr lash ko'nikmalari ham shakllantirilmoqda. Bu esa yoshlarni hayotda mustahkam pozitsiyaga ega bo'lgan, yurt kelajagiga befarq bo'lmagan, ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. Askar uchun har bir buyruq sinov bo'lishi mumkin, biroq komandirlar va tarbiyachilarning roli, ularning zamonaviy psixologik usulblarga asoslangan yondashuvni ushbu sinovlarni yengib o'tishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Toshkent harbiy okrugida olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlarida vatanparvarlik g'oyalari tushuntirilmoqda. Bu esa askarning Vatan haqida nafaqat yuragida, balki ongida ham chuqur

tushuncha shakllanishiga olib kelmoqda. Har bir askar o'zini "Men Vatan himoyasidaman" degan g'urur bilan el-yurt ishonchini oqlashga intilyapti. Askar ruhiy holati mustahkam bo'lishi uchun ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari, tarixiy g'urur, milliy qahramonlarimiz jasorati asosida kuchli motivatsyon muhit yaratilgan.

Afsuski, ba'zida yosh askarlar orasida tushkunlik, ruhiy bo'shliq uchrab turadi. Bu holatlarning sababi ko'pincha armiyaga tayyorgarlik jarayonining faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan yetarli darajada olib borilmasligida bo'lmoqda. Shu bois muddatli xizmatga qabul qilishdan avval psixologik tayyorgarlik kurslarini joriy etish, harbiy hayotning ilk oyida moslashuv darslarini tashkil etish kerak. Bu orqali yoshlarga harbiy xizmat fojia emas, balki o'z ustida ishslash, hayotda o'z o'mini topish uchun noyob imkoniyat ekani anglatilishi lozim. Shu jihatdan qaraganda, harbiy xizmat barkamol avlodni shakllantirishda ta'lrim tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy institutdir. Bu institut yoshlarni mas'uliyatli, kuchli iroda sohibiga aylantiradi.

Zero Vatanni himoya qilish – o'ziga ishongan, irodasi kuchli yoshlarning qo'lidan keladigan buyuk va sharafli mas'uliyat. Har bir askarning ortida xalq umidi, onasining nigohi, otasining orzusi turadi. Aynan mana shu his unga har qanday mashaqqatni yengib o'tishda kuch va matonat bag'ishlaydi.

**Zilola AZIZOVA,
Toshkent davlat agrar universiteti
o'qituvchisi**

Gazetxon minbari

KORRUPSIYA VA MILLAT

O'zbekistonda ijtimoiy-psixologik va huquqiy muammo sifatida

Korrupsiya har qanday jamiyat uchun ichki yemiruvchi kuch bo'lib uni faqat qonun doirasidagi chora-tadbirlar emas, balki xalqning ijtimoiy ongidagi o'zgarishlar orqali yengish mumkin. O'zbekiston jamiyatni ham bu illatga qarshi uzoq yillardan buyon kurash olib bormoqda. Biroq ushbu muammo ildizlari faqat davlat boshqaruvi darajasida emas, balki kundalik hayotimizda, odamlar orasidagi munosabatlarda, ijtimoiy qadriyatlarda aks etgan. Korrupsiya – bu faqat pora berish yoki olish emas, balki adolatga, teng imkoniyatlarga, qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchning yemirilishi.



ustuvorligiga emas, norasmiy yo'llarga ishoniishi boshlaydi. Bu holat, ayniqsa yosh avlod uchun xavflidir, chunki ular katta avloddan "Shunday bo'lgan, hozir ham shunday, ertaga ham shunday bo'ladi", degan qarashni meros qilib oladi. Bu esa jamiyatni yangilanishdan, islohotlardan chetda goldiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni inkor etib bo'lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, ochiq byudjet portallarining faoliyati, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi bularning barchasi muhim bosqichdir. Ammo bu chora-tadbirlar aholining ishtirokisiz samarali bo'la olmaydi. Chunki har bir qonunni hayotga tatbiq etuvchi ham, undan foyda ko'rvcchi ham oddiy fuqarodir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat jinoyatchilikni kamaytirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdir. Adolat mavjud bo'lgan jamiyatda odamlar teng imkoniyatlarga ega bo'ladi, o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi. Adolatlari jamiyatda esa korrupsiyaga joy bo'lmaydi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish – bu faqat bir tashkilotning emas, balki butun jamiyatning, har bir fuqaroning mas'uliyatli pozitsiyasiga tayanadigan umumxalq harakati.

Yoshlarning bu jarayondagi roli alohida ahamiyatga ega. Bugungi yosh avlod ochiq axborot maydonida, ijtimoiy tarmoqlar orqali voqealarga tezkor baho bera oladigan, o'z pozitsiyasini bildira oladigan kuchga aylanigan. Ularning ijtimoiy faoliigi, jurnalistika va blogosfera orqali qonunbuzarliklarni fosh qilishi, korrasjon

holatlarni ko'tarib chiqishi jamiyatdagi ochiqlik muhitini kuchaytirmoqda. Bu esa davlat va xalq o'tasidagi masofani qisqartiradi, muammolarni tezroq yechishga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida xalqning huquqiy savodxonligini oshirish muhim o'rinn tutadi. Odamlar o'z huquqlarini bilmasa, ularni himoya qila olmaydi. Shu sababli huquqiy targ'ibot ishlari, maktab va oliygoҳ dasturlariga korrupsiyaga qarshi madaniyatni singdirish, mahallalarda trening va davra suhbatlari o'tkazish zarur. Qonun faqat kitobda emas, hayotda ishlashi uchun odamlar uning mohiyatini tushunishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya nafaqat iqtisodiy yo'qotish, balki ma'naviy inqirozdir. U jamiyatning sog'lom rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ishonchni yemiradi va imkoniyatlarni adolatsiz taqsimlaydi. O'zbekiston Respublikasi bugun bu illatga qarshi kurashishda muhim bosqichga kirgan. Davlat siyosatidagi ochiqlik, raqamlashtirish, qonunchilikdagi islohotlar ijobji natija bermoqda. Ammo bu jarayoning eng muhim ishtirokchisi – bu xalqning o'zi. Har bir fuqaro o'zining halollikdagi pozitsiyasini mustahkam tutsa, hech bir tizimda korrupsiyaga joy qolmaydi. Shunday ekan, korrupsiyazis jamiyat sari harakat qilish faqat hukumatning emas, balki bizning ham burchimizdir.

**Podpolkovnik G. SABIROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi**

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan birga korrupsiyaga qarshi kurash ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Dastlabki yillarda bu kurash ko'proq deklarativ xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u tizimli shaklga kirmoqda. Ayniqsa, oxirgi besh yil ichida davlat rahbariyati tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Biroq bu jarayon qanchalik faol bo'lasin, uni xalqning ishtirokisiz, uning ichki qarshiligidisiz va fuqarolik pozitsiyasidagi yengish mushkul.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida korrupsiyaning ko'rinishlari va xalq hayotiga ta'siri turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, yirik shaharlar – Toshkent, Samarqand, Farg'onasi kabi hududlarda korrupsiya ko'proq biznes yuritish, qurilish va tender sohalarida kuzatiladi. Ayniqsa, yer ajratish, mulkni rasmiylashtirish yoki litsenziya olishda qo'shimcha mablag' talab qilish holatlari aholini charchatgan. Bu jarayonlarda "tanish-bilish" orqali masalani

hal qilish odatiy holga aylangan. Aholi ko'p hollarda bu kabi muammolarga qarshi chiqmaydi, balki ularga ko'nikib qolgan. Ko'philik fuqarolar: "Shu yo'l bilan tezroq hal bo'ladi", degan qarashni ilgari suradi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashni yanada qiyinlashtiradi.

Qishloq joylarida esa korrupsiya boshqa shakllarda uchraydi. Misol uchun, ijtimoiy yordam ajratishda, muhtoj oilalarini ro'yxtatga kiritishda yoki ishga joylashtirishda ayrim holatlarda mahalliy vakillar shaxsiy manfaatni ko'zlagan. Ko'p hollarda oddiy odam o'z haq-huquqini bilmagan yoki qonunga ishonchining pastligi sababli o'z noroziligini ochiq bildira olmaydi. Bunday holatlarda odamlar jim turadi, chidashadi va bu jimlik korrupsiyaning chuqurlashishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiyaning eng xavfli jihatlaridan biri shundaki, u jamiyatda ishonch muhitini yemiradi. Agar fuqarolar davlat idoralariiga ishonmasa, qonunga emas, tanish-bilishga tayanadigan bo'lsa, bu huquqiy ongning inqiroziga olib keladi. Odamlar qonun

Qahramonlar nomi barhayot



MARDLAR ANGU YASHAYDI

(ballada)

Mazkur asar 2000-yilda Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida xalqaro terrorchilarga qarshi janglarda 21 yoshida qahramonlarcha halok bo'lgan farg'onlik serjant Xolboyev Xayriddin Shodiboyevichning jasorati hamda yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

(muallif)

I lavha

Gulsinbibining tushi yoxud tahlika

Farg'ona viloyatining So'x tumanida joylashgan so'lim Lenburg qishlog'idagi Xolboyevlarning sarishta hovlisi. 2000-yil. 16-sentabr. Subhidam.

Oltin kuz atrofni muzayyan qilgan, Bog'larda to'kinlik, baraka zohir. Biroq Onaizor qalbini tilgan, Noxush tush ko'ngilga soldi xavotir...

Gulsinbibibi zinhor bunday qorong'i, Hamda mudhish tushni ko'rgan emasdi, Tushmidi, o'ngmidi, bilolmasdi U, Uyg'onib ham o'ziga kela olmasdi...

Tavba, tavba, deydi, tutib yoqasin, Lablari pichirlar, sochlari to'zg'in... Balo-qazolardan o'zi saqlasim... Osmonni to'ldirmish bir gala quzg'un...

Quzg'unlar tim qora, tumshuqlari qon, Panjalari ulkan changak misoli... Qichqarsa, bosarmish atrofni fig'on... Go'yo ular yer-u ko'knинг zavoli...

U dahshat ichida cho'chib uyg'ondi, Tashqariga chiqsa - ufq qontalash... Kalima keltirib, suv ichdi, qondi... Lekin yuragiga tushdi bir otash...

Gulsinbibibi xomush ko'ngli alag'da, O'yaldi, ehtimol Otam betobdir. Odatiga ko'ra, bundayin chog'da, Oppoq supra yozib, qoradi xamir...

Otamni sog'indim, ular ham ilhaq, Kutib o'tirgandir erka qizini. Mayli, ulguraman hali-ku barvaqt, Sog'indim otamning hikmat so'zini...

Shu o'ya tandirga o't qalar shitob, Gurullab birpasda tandir oqardi. Lekin noxush tushga topolmas javob, Hamon xavotiri bag'rin chaqardi...

...Mana, U qadrdon ota uyida, Ketmasboy boboning ko'ngli xotirjam, Tegrasida biyron nabiralari, Ularga tikilib, boba ham bardam...

Duo qilar ekan, har bir dilbandin, Gulsinga yuzlandi va berdi savol: - Qalay, xizmatlari bizning serjantning, Ta'tilga kelgaydir, ehtimol?..

- Oo, qaniydi, Ota kelsa ta'tilga, Xursand qilar edi biz hammamizni, Axir unashirib qo'yidik yaqinda - Kelin qilyapmiz - Ziyoda qizni...

Koshki, tezroq qaytsa, ona yurtiga, Vodiya ham harbiy qismalar ko'p-ku, Bilmadim... kechagi yozgan xatida... Maxsus xizmatdaman... razvedka debdi...

Otaxon jilmaydi, kulimsiradi, Yodini uyg'otar huv xotiralar... Axir razvedkani yaxshi biladi, Kurskdan qon kechgan Berlinga qadar...

- Ona yurt deysanmi?! Nima, seningcha, Begona yurtmidir Boysun tog'lari? Axir Surxondaryo - yurtiga chegara, Uni qo'riqlaydi elning mardlari...

Biz urushda olis yurtlarni hatto, O'z yurtim, o'z uyim, deya bilganmiz, Aslida Vatandir - insonga tanho, Shu qishloq, shu el, deb jangga kirganmiz...

Agar bosganida fashist olchoqlar, Olganida edi butun dunyoni, Kuyib kul bo'lardi bizning qishloqlar, Qabohat yengardi nurni ziyoni...

Madomiki, shunday urushda askar, Hamisha erkni deb jangga kiradi, Qaydaki bo'lmasin, shaksiz muqarrar, Ona yurt, elni deb jangga kiradi...

Dushmanga ro'baro' bo'lgan chog'ida, Ko'z oldida turar uning Onasi, Mardligi jo'shadi qalb ardog'ida, Bo'y cho'zar farzandi - jigaporasi...

Eh, nimasini aytay, shunday shaxt bilan Ne-ne mard yigitlar topdilar zavol... Quroldosh do'starlarim har kun eslayman, Ularning qoniga kelgan baxt-iqbol...

Bobo shunday derkan qo'li qaltirar, Barmoqlar titraydi peshonasida, Ko'ksidagi qator orden yaltirar, Fikri chalg'ir xayol ostonasida...

Birdan nabirasin esga olar U, Chehrasi yorishar jilmayib qo'yar. Tark etar ko'nglini ozorli tuyg'u, Gulsin piyolaga tag'in choy quyar...

...Xayriddin, Xayriddin, qalbi naq olov Yerga ursang, ko'kka qarab sapchiydi, Bolalik chog'idan bobosin birrov, Ko'rib o'tsagina, ko'ngli tinchiydi...

Bag'rige olarkan sho'x nabirasin, Ketmasboy bobo ham tuyardi faxr, Taqib olar orden-medal hammasin, Xayriddin tikilar ularga bir-bir...

Qarang, havas qilsa, yetkazar Egam, Nabira bosdi-ku boba izini. Xizmatni tugatib uyya qaytgach ham, Harbiy libosga mos ko'rdi o'zini...

Mana, bugun serjant o'ktam va norg'ul, Sarhadni qo'riqlar Surxon tarafda... "Xayriddin - bir bizmas, millatga o'g'il, Ona yurt sha'nini burkar sharafga..."

Ketmasboy boboning yorishar yuzi, Ko'ksiga nafasmas faxr to'planar: "Oqilfarzandlar-da, insonnig izi, Shular bor, ota-yu boba eslanar..."

II lavha

Askar o'ylari

2000-yil. 16-sentabr tongi. Surxondaryo viloyati... Sariosiyo tog'lari. Harbiy qarorgoh.

Kecha tuni bilan Xayriddin bedor, Olis yulduzlarga boqdi tikilib. Xayolidan o'tdi takror va takror, So'nggi uchrashuvi kinoday bo'lib...

Ziyoda... o'shanda hayajon bilan, Qo'llariga nafis ro'molcha tutdi, Harir pushti rangli gullar ichidan, Yigit ko'zi kashta bitikka tushdi...

Qirmizi ipak-la mehrini qo'shib, Chevar qiz yaratmish jannati chaman. Har gulga misoli pechakdek eshib, Yozibidi: "Azizim, sizni kutaman..."

"Kutaman..." - naqadar shirin kalom bu, Bunchalar nurli so'z, qaynoq dil izhor Birgina so'z ichra bir olam tuyg'u, Dunyocha muhabbat ifodasi bor...

Xayriddin xo'rsinar, ko'zları yonar, Kelgusi hayotin qilib tasavvur. Hammadan Onasi ko'proq quvonar... Kelin choy uzatsa, qiladi huzur...

Eh, Ona, Onajon, Sizni qiyadim, Doim ham pandlarga osmadim quloq. Lekin hammasini bugun angladim, Sizdek mehribonim yo'q ekan mutlaq...

Nogoh yonidagi quroldosh do'sti Oybek uyg'onadi nedir g'udranib, So'ngra Xayriddinning xayolin kesib, Deydi: uxlasang-chi, uyquga qonib...

Buncha Majnumlikni olma bo'yningga, "Oq o'rар" o'tibdi, to'y ham bo'ladi. Laylingni olmaday solib qo'yningga, Gulsin ayamning ham ko'ngli to'ladi...

Agar Otabekdek oshiqligingni Bilsam, yengillatib onang tashvishin, Tog'dek ko'tarardim do'stim ko'nglingni Topib Marg'ilonning eng zo'r Kumushin...

Marg'ilon qizlari bag'oyat go'zal, Bejiz Otabek bo'lmas xaridor. Kumush deganlari oltindan afzal, Latofat, malohat, ibosi bisyor...

Shunday deb Oybek ham mayin jilmayar, Yodga tushar latif gul Marg'iloni, Axir o'zida ham ayni shu gaplar, Kelin izlayapti jon Onajoni...

Eh, juda zo'r bo'lar vodiy to'ylari, Dasturxon haqida aytish shart emas. O'yin-u askiya, qo'shiq-kuylari, Toki tong otguncha, bir lahzta tinmas...

Xayriddin do'stining tutib yelkasin, Deydi to'yimda sen kuyovojo'rasan. Davraga chiqib so'z aytasan tag'in, "Andijon polka"ga o'ynab berasan!

Oybek rozi bo'lib boshin irg'aydi: "Do'stinning tilagi - boshim uzra toj, Lekin akang anjanchani bilmaydi, O'ynasam chaldirgin faqat Dilxiroj..."

Xayriddin qo'lini qo'yib ko'ksiga, Der: Senga menimcha, bitta kuy kamov... So'ngra "besh tashlaydi" aziz do'stiga, "To'ygacha omon bo'l, askar - Hamdamov!"

...Bugun ular askar... chorlagan Vatan, Yigitlik burchiga qilgan qasamyod, Yurt tinchligin saqlash har yigitga sha'n, Armiya - qo'rg'on bor, el-u yurt obod...

...Ikki do'st quroldosh ikki hamnafas, O'rtasida davom etar muloqot... Lekin ular bilmas, ming afsus bilmas, Ne qismat yozganin ushbu tong hayot...

III lavha

Terrorchilar hujumi... Tengsiz jang

Sirena vahima bilan jaranglab, Bir lahma ichida qo'pdi qiyomat... Tezkor safarbarlik holatin anglab, Qarorgoh qo'zg'aldi, qo'lda avtomat.

Ayting bu shunqorlar qachon ulgurdi, Aql bovar qilmas, har biri - chaqin, Xayriddin va Oybek o'qdek yugurdi, To'ldirib vzvodda do'stlarning safin...

Sharq tomon - qarorgoh ortida qishloq, Chap tarafda - guylab oqar edi soy. Demak, ma'qul bo'lар tog' tomon yurmoq, Toshlar orqasida dushman hoynahoy...

Taxmin to'g'ri ekan... bir to'da g'addor, Boshiga ro'dapo sulla o'ragan. Hayqirib o'q uzar qashqirdek makkor, Tog'-u tosh, dov-daraxt orti - panadan.



Ular kim? Ne istar, nedir muddao?
Mustaqil, hur, ozod davlat sarhadin
Buzmoqqa kim bermish ularga fatvo,
Kimning maqsadidir bu qonli qirg'in?!

Terror, terror... o'sha chirkin puch g'oya,
Qo'rquv, dahshat solib hukmron bo'lmoq.
Qaysi yurt gullasa boshida soya,
Qora bulut kabi yo'lini to'smoq..

Ularning maqsadi - bo'lmasa tinchlik,
Hurlikka dunyoda o'ren bo'lmasa,
Ustuvor bo'lsa-yu, zolimlik, zo'rlik,
Qora kuch istagan xalqni xo'rlasa...

Tag'in ulug' dinni qilgancha niqob,
Jaholat, bid'atni aylaydi targ'ib,
Chirkin g'oyalarga ergashib gumroh
Qancha yigit ketdi juvonmarg bo'lib...

Yana bir maqsadi giyohvandlikka
Munosib sharoit, yo'lak ochishdir,
Buzg'unchi yurtlardan kelgan boylikka
Nafsiqa qul bo'lib, yurtni sotishdir.

Ularda na din bor, na iymon, tayfiq,
Bari - qabohatga, shaytonga malay,
Hayotiga mazmun - "narkotrafik",
Harom luqma yutar, hech hazar qilmay...

Aslida bular bir qo'g'irchoq, laycha,
Ummon ortidadir makkor korfarmon.
Razillar to'dasi ishni qilguncha
Itga suyak tashlab turar begumon...

Dunyoda neki bor, mojarlo urush
Ularning dasturi bilan bo'lgaydir.
Maqsadi ming turli qurolin sotish
Qirg'inbarot bo'lsa, ko'ngli to'lgaydir...

Mana, bizning Vatan, jannatmakon yurt,
El ozod, taraqqiy topar tobora,
O'zbek diyorida baraka va qut,
G'animlar ko'nglini qiladi pora...

Oz emas, ko'p emas, yuz o'ttiz, rosa,
Millat-u elatga oshiyon bu yurt.
Hammasi qon-qardosh, qilib murosa
Bir tan-u bir jondek yashar bag'ribut...

Koshki, deydi, raxna solsak bu elga,
Tariqdek tarqalib ketsa, batamom,
Qaram bo'lib qolsa, biz bo'lsak - ega,
Tarixlardan o'chsa, O'zbek degan nom...

Ana shunday razil, makkor o'y deya,
Qurol-yarog' tutib kelmoqda g'anim...
Lekin sarhadlarda qo'rg'on - Armiya
Borligin faromush qilmoqda g'anim...

Bundagi har askar, har bir mard o'g'lon,
O'zbekning shonini saqlar qonida,
Ularning har biri - bir Sohibqiron,
Temur, Jaloliddin, Bobur yonida...

Kim agar bu yurtga tig' bilan kelsa,
O'shal tig' o'z boshin kengandir azal.
Agar moziylardan xabari bo'lsa:
G'anim bilar - bunda topishin ajal...

...Jang qizg'in ketardi, otishma tinmay,
Tog'dagi butalar yona boshladi.
Gohida ko'rinish, gohi ko'rinnay,
Dushman tog'dan pastga ena boshladi...

Biroq endi uni yengmoq ko'p mushkul,
Hiylakor murtadlar topibdi chora.
Bosqinchilar ortda, oldinda nuqul,
Qishloqning tinch ahli kelar bechora...

Yosh-qari, bolalar, kampirlar talay,
Jonli devor bo'lib, sudralar yig'lab...
Askarlar hang-u mang, bir o'q otolmay,
Dushman-chi, o'q uzar ortda panalab...

Shunda Xayriddinning keldi o'yiga,
Chap tomonda, ya'ni soyga yaqinroq,
Qalin na'mataklar sohil bo'yida
G'uj bo'lib o'sgandi. Ko'zdan panaroq.

U Oybek do'stiga qildi ishora:
Men soyga tushaman xavf juda katta,
Qishloq ahli meni payqasa zora,
Yugurib o'tishsa sohil tarafga.

Anavi to'rt "it"ni o'zim olaman,
Qolganin qorasi ko'ringan zamон,
Sidirg'a o'q uzib avtomat bilan
Sen o'zing biryo'la qilasan gumdon...

Muhimi, bolalar va ayollarga
O'q tegib, biror jon bo'lmasin nobud.
Agar ulgurishsa, hammasin birga
Boshlab kelgaydirm... hushyor bo'lib kut...

Shunday deb mard o'g'lon do'stini quchdi,
Oybek karaxt edi, vahima o'ya.
Xayriddin jilmaydi, labidan uchdi:
"Do'stim, dilxirojga o'ynaysan to'ya..."

Keyin jadal pastga ketdi panalab,
Qo'lida tutgancha qurol dastini,
Oybek bilmas edi, bilmasdi, yo Rab,
So'nggi bor ko'rganin do'st chehrasini...

Nogoh dushman taraf chiqdi avjiga,
Avtomat tarillab yog'dirdi balo...
Qancha askarlarning guldek joniga
Qo'rg'oshin bir zumda bitdi intiho...

Shunda ajib holat yuz berdi birdan,
Dushman safi siyrak tortdi, buzildi,
Xayriddin panalab borgan hu yerdan,
To'xtovsiz o'qlarning safi tizildi...

Aniq chiqli serjant o'ylagan reja,
Qishloq ahli birdan tarqalib qochdi,
Ayrimplari buta, ba'zisi esa
O'zini muzdekk suv bag'riga otdi...

Dovdirab qolgandi bosqinch mal'un,
Olddag'i ihota tirik devorsiz.
Qochib ketganlarni otmoqlik uchun,
Yon-atrofga boqmoq edi ilojsiz...

Xullas, shunday qaltis, tang bir holatda
Hujumga tashlandi askarlar dangal,
Dushman galasini solib dahshatga,
Yer tishlatib jangni ayladilar hal...

Muhimi, omondir qishloqning eli,
Icki-uch qariya olgan jarohat.
Oybekning negadir bezovta ko'ngli
Hammadan so'roqlar, do'stin betoqat...

Shunda u olisdan ko'zga tashlandi,
Jajji bir bolaning qo'lidan tutib...
Oybekning ko'zlarini nogoh yoshlandi...
Do'sti tomon chopdi o'zni unutib...

U yetib bormasdan yiqlidi serjant,
Ko'ksidan qon oqar edi tinimsiz...
Bolaga - "Bora qol, - deya jilmayar...
- Buyog'iga yetib olarsan mensiz..."

Oybek yuguradi, chopadi timmay,
Shuncha yugursa-da, yetib bo'lmaydi...
Hech narsa ko'rinnas, yigit paydar-pay,
Bir so'zni takrorlar: "Do'stim o'lmaydi..."

Do'stim. Qadronim o'lmagligi shart!
Uningsiz Men qanday uyg'a boraman...
So'z berdim: to'yingga bormagan - nomard.
Men o'zim... men o'zim kuyovo'raman...

...Yetib keldi... oldi boshini qo'lg'a,
Ohista oyog'in uzatdi askar...
Oybek esa boqar javdirab yo'lg'a,
Koshki yetib kelsa biror sanitar...

Lekin qattol ekan... hayot, talx qismat...
Xayriddin so'nggi bor ochdi-yu ko'zin...
Do'stiga jilmayib kuldi-da, faqat...
Dedi: "Ziyodaga tushuntir o'zing..."

Ukam Shamsiddingga tayinlab aytgin,
Qallig'imga o'zi bo'lsin ko'z-quloloq...
Men o'zim istardim...istardim lekin...
Ko'rib turibsan-ku... ahvolim chatoq..."

U so'nggi bor yana mayin jilmaydi,
So'radi: - Qochganlar chiqdimi omon?
Demak, endi o'lsam, alam qilmaydi,
Qutqangan bolamda - hayotim davom...

Ohista ko'z yumdi... jips kaftlarida
Ro'molcha qizarib ko'rindi birdan.
Oybek kashtali gul chekkalarida
O'qidi: "Azizim, Sizni kutaman..."

Muhiddin OMON

"Kutaman", - bu so'zni Xayriddin har kuri,
Takrorlab tinmasdi bir lahza, bir on.
"Endi bu munavvar kalom kim uchun?!"
Oybek o'rtanardi, bo'lib bag'riqon...

O'tirgan joyida bedarmon holsiz...
Bir narsa qars etib yelkasin egdi...
Bildiki qay g'anim tirik, g'alami...
Saqlagan so'nggi o'q Oybekka tegdi...

...Keyin nima bo'ldi... yo'qdir esida...
Tim qora, zim-ziyo bo'ldi-ku osmon...
Qachon ko'zin ochdi, keldi o'ziga:
Buni ham bilmasdi, angloolmas hamon...

Lekin yorug' edi yotgan xonas...
Oppoq choyshab uzra nur sochar Quyosh...
Xotirda tiklandi, hujum lavhasi,
Do'stini esladi... ko'zi jiqlqa yosh...

Sal o'tib, hamshira keldi yoniqa.
Aytdiki, safdoshlar bir-bir yo'qlabdi...
Har holda o'q tahdid qilmay joniga
Shifokorlar vaqtida olib tashlabdi...

Baribir, og'irdir ahvoli hamon,
Uni gospitalga yotqizish lozim...
Shul sababdan olib uni Marg'ilon
Taraifa yo'l oldi uch-to'rt mulozim...

IV lavha Mardlar mangu yashaydi

Jangdan so'nggi holat tasvirdan xoli,
Men buni ta'riflay olmayman shaksiz.
Baxtli edi omon qolgan aholi,
Armiyadan rozi edilar cheksiz...

Ammo askarlarning safida xato:
Yigirmadan ortiq navqiron o'g'lon
Ona yurti uchun jon qilib fido,
Tinchlik, hurlik uchun bo'lgandi qurban...

Qishloq ahli, yosh-u qari hamjihat,
Yig'ilib kelishdi qarorgoh sari.
Deyishdi, mardlarning umri barhayot,
Qurban bo'lganlarning - Qahramon bari...

Mardonavor qo'shin yana saflandi,
Mardlik, jasoratni aylab mujassam.
Vatan posbonlari sha'n taqdirlandi
Oliy Bosh Qo'mondon farmoni bilan.

Ular orasida so'xlik Xayriddin,
Navqiron serjantning nomi bor edi.
Gulsin aya oldi o'g'lin medalin,
Ko'zda yosh-u, qalbda iftixor edi...

"Jasorat" degan so'z mardlik ekan chin,
Jasorat - fazilat erur barqaror,
Bu so'zda Temurbek, Bobur qilichin,
Manguberdilarning o'lmas ruhi bor.

Gulsinbibi garchi bir Ona kabi,
Farzandning dog'ida o'rtandi, yondi,
Biroq ravo bo'ldi uning matlabi,
Mardlar barhayotdir - deya ishondi...

Negaki, farzandi ona Vatan deb,
Shirin jonini ham ayladi qurban.
Holbuki, Onasi to'yin ko'ray deb,
Sarpolar taxlovi, orzusi - osmon...

"Nahot, sarob bo'ldi ezgu niyati,
Nahot, Ona baxti endi kulmaydi!'
Yo'q, aslo! Shahidlar abadiyati,
Mangu qolar, O'g'li zinhor o'lmaydi..."

Taskindir Onaga shu kabi o'ylar,
Yurakdag'i anduh topadi barham:
Lablari titraydi, sekin shivirlar:
"Bergan oq sutimga roziman, bolam!
Bergan oq sutimga roziman, bolam!"

V lavha Xotima

Mana, azizlarim, bitti nihoyat
Mahzun bir dostonning mo'jaz nusxasi.
Lekin bu yozganim - qisqadir g'oyat,
Ulug' dostonlarning muqaddimasi...

So'zimning so'ngida Siz uchun albat
Bayon etmog'im shart, Ziyoda haqda...
U qayerda hozir, ne bo'ldi qismat...
Ne o'y-xayol bilan U yashamoqda...

Yaqinda men bo'ldim dilovar So'xda,
Xayriddin yashagan qishloqda bo'ldim.
Do'st-u tanishlardan so'rdim U haqda,
Yaxshi gaplar tinglab, sevinchga to'ldim.

Ziyoda orzusin qilib ijobat,
Hamshira bo'libdi... el xizmatida.
Farz debdi akamdan menga vasiyat,
Shamsiddin olibdi o'z nikohiga...

Hozir ular baxtli, tinch-totuv yashab,
Uch farzand to'ldirmish oila bag'rin,
Meni mammun qildi, shod qildi, ajab,
To'ng'ich o'g'illarin ismi Xayriddin...

Gulsin aya anche tutgan o'zini
Bag'riga bosadi sho'x nabirasin
Mehr-la silarkan qosh-u ko'zini
Deydi: yurtimizda urush bo'lmasin!

Men mehmon bo'lgan kun qishloq maktabi
Har kungidan fayzli ko'rkm tuyuldi.
O'sha kun Hukumat farmoni bilan
Bunda Xayriddinga byust qo'yildi...

Hamma yig'ilganlar yod etdi maqtab,
Alqab so'zlardilar Xayriddin haqda,
Uning nomidadir endi bu maktab,
Demak, Xayriddin bor... U yashamoqda!

Zero yana kunlar quvib yillarni
Yozilar u haqda necha bir doston,
Dunyoga ko'rk bo'lib porlayveradi,
Mardlarning Vatani -

HUR O'ZBEKISTON!!!

Toshkent shahri,
2025-yil, 8-25-may

Keling, kitob o'qiyimiz!



Ko'nglim to'lib ketdi deyishadi. Nimadan to'lar ekan-a, shu ko'ngil? Oshiqning muhabbatiga o'xshash tuyg'u desa ham bo'ladi, ammo ko'ngil tez-tez to'lib, bo'shab qolishi ham hech gap emas. Oshiq ma'shuqiga yetganida bor dard-u armonlaridan xalos bo'ladi. Ko'ngil boshqa his-tuyg'ulardan to'lganda-chi? Yozuvchilar "To'lib ketdim, to'kila olmayapman", deya zorlanishganini ko'p eshitganman. Qog'ozga ko'nglini to'kib, yengillashib olishadi. Va, o'sha she'r yoki hikoya ta'sirida bir necha kun o'zlarini baxtiyor his etib yurishlari ham bor gap. Ammo boshqa odamlar-chi, ular ko'nglini qanday bo'shatishi mumkin, bilmadim. Bilganim Tangrim ijodkorlami ijod zavqi-yu shavqi bilan siylab qo'ygan. Gohi to'lib, gohi to'kilib ko'nglimizni to'q qilib yuramiz. Ha, aytgancha odamlar uchun to'kilishning eng yaxshi yo'li kitob bilan oshno bo'lishdir.

To'kilish eng go'zal daqiqadir. O'sha lahzalarda ijodkor to'lg'oqlar ichida qynalayotgan ona misol oy kuni yaqin-u ko'zi yorimayotgan, farzandini bag'riga bosguniga qadar chekayotgan zahmatlariga o'xshash holatni boshidan kechiradi. Ya'ni ko'nglining tubidan qog'ozga ko'chayotgan asarlarini qo'liga olgunicha dunyoning bor dardini yutadi. Unga to'kiladi. Bugun men sizlarga ilinayotgan bu yoziqlar ham ana shunday to'lg'oqlardan dunyoga kelgan, desam mubolog'a bo'lmaydi.

Jurnalist do'stim Otabek Isroilov bir quchoq kitob ko'tarib kelib goldi. Bu yigitning fazilatlari haqida to'xtalmasam, o'zimni o'zim kechirolmayman. Har doim insonlarga ma'rifat ulashib charchamaydigan, samimiyo, oqko'ngil yigit. Kitob javonimning qanchadir qismini shu yigit sovg'a qilgan kitoblar bilan to'ldirganman. Yomon kitob sovg'a qilmasligini inobatga olgan holda, shu insondan kitob olsam, qoldirmay o'qiyaman. Har kimning ham shunday do'stleri bo'lsin ekan. Bu gal hadyalar orasida Ikrom Iskandarning "Visol qushlari" nomli ko'k muqovali kitobi ham bor edi. Bu kitobni o'qishingiz kerak, degan talabdan keyin mutolaaga bel bog'ladim.

SHOIR BILAN TANISHUV

Ishqsiz odamlardan olis bir yoqda, quyosh kabi anvar, musaffo, begard qalbimning yurti bor va uni soxta hislardan qo'riqlab yotguvchi bir Dard.

Bunda gullar bordir ko'ngilday nozik. Xayol kabi uzun so'qmoqlarida bir qiz yuguradi quchog'in yozib, quchmoqqa... Xayolim turar narida.

Tillo topganday quvonib ketdim, she'rni o'qib tugatgach, yangi nafas, yangi his-hayajonlar bilan boshqa shoirlardan o'zgacha ruhni tuydim.

"ISHQSIZ ODAMLARDAN OLIS BIR YOQDA"

O'zim o'zimni ham ijodkor o'laroy qynayotgan tuyg'ular yozilgan bu misra darhol ko'ngil ko'zlarimni ochdi. O'sha shoir aytgan olis yoqlarga jo'nab ketish istagining xuruji tutib qoldiyov. Shoir og'am o'sha olis yoqlarda o'z dunyosini qurishga ham ulgurgan. Garchand xayol bo'lsa ham, o'sha manzili noaniq bo'lgan

Ko'ngil nimadan to'ladi

yoqlarga quchog'ini ochib yugurib kelayotgan qizning ko'zlariga boqib, jim termilayotgan oshiq sevgan yorini xayollarida ham bag'riga bosishga iyamanishi juda ham go'zal tasvirlangan.

Yana bir she'rida:

Donsiz ketayotgan Chumoli maqtanchoq bo'ladi.

"Yer sharini yumalatib ketyapman" deb o'ylaydi u.

Yoshim ulg'ayishi bilan bog'liqmi, bilmadim, oxirgi paytlar mana shunday kichik, lekin yuki og'ir savoli bor she'rilar yoqib boryapti. Shoir og'am ijodida esa bunaqa zalvarli she'rilar anchagina topiladi. Insonlar orasida ham dardsizlarning ovozi

balandroq keladi. Dunyoni ushlab turgandek qichqirib, so'zlarini o'tkazmoqchi bo'layotganlar talaygina. O'zlariga qo'yib berishsa-ku, ko'rpsidan boshini ham chiqarolmaydi.

Shoir aytganidek: "Yer sharini yumalatib ketyapman", deb o'ylashadi xolos.

Ko'zlarimda

Visoldan

Umid tug'saydi...

Ammo,

Qachon ko'zi yoriydi

Bu og'iroyaq

Sog'inchning?

Yana o'sha kichik, lekin zalvarli she'rilar. Sog'inchning ko'zi yorishi go'zal tashbeh. Shu so'zda butun boshli oshiqlarning diydor topishi-yu, ayriliq azobida chekayotgan zahmatlarini nazarda tutgan shoir.

Tun sening sochingda yashirinadi, Tong kelib qo'nadi mening boshimga.

Bu she'r esa xuddi o'sha oshiq yigitning ma'shuqasi yo'llariga termilgancha tunlari bedor o'tgani va bu sog'inch iskanjasida oshiqning sochlari oqarib ketgani ifodalangan. Go'zal lirik she'rler jon-u dilim. Shunaqa mag'zi to'q she'rлarni uchratib qolsam, boladay quvonib ketaman. Kitobni o'qir ekanman, o'sha oshiq o'rniqa o'zimni qo'yib, xonaning u burchagidan bu burchagiga yurgancha, kitob sahifalarini varaqlayman.

Men uzun-uzun maktublar yozaman madhingga.

O'qisan -

Ularning so'zlarini narvon bo'lar,

Sen chiqib kelasan Arshi a'loga.

So'ogra nazaringga ilmaysan,

Hattoki

Meni.

Muhabbat go'zal tuyg'u, she'r esa uning bo'g'zidan otolib chiqqan na'radir. Shoir og'am buni judayam yaxshi anglagan. Bu ijtimoiyashib ketayotgan zamonda yuragini bunaqa sof saqlab qolish esa faqtgina chinakan insonga xosdir.

"Tirnog'imga ham arzimaysan", pisanda qiladi u.

- Hurliqomiding? -

deyman mensimay.

So'ogra ketaman o'z yo'limga.

Qo'shiqlar aytaman isbotlaganday

xursandligimni.
Lekin tunlar xayolim qoqib
kirib kelaverar
tirnoqlari
tillodan
bir qiz.

"Ohh", deyman, bu misralar qoshida oshiqning o'jarligi-yu, mashuqning dimog'dorligini, sevgining esa o'z so'zida sobit qolishini, baribir oshiq yuragi qayta-qayta chertib kelayotgan "tirnoqlari tillodan qiz"ning qoshida, muhabbatning qoshida so'zsiz qolishini ifodalagan bu so'zlar haqdir.

Shoir og'am muhabbatning ulug' tuyg'u ekani o'qirmanning quloplari tagida nafis pichir laydi.

Shoirning "Bahor" she'rida ham boshqacha hayrat tuyaman.

Qabriston yonida o'sgan Tok,
Do'mpaygan qabrlarni ko'rib,
O'yladi:
- Bu toklarni qachon ochisharkin?

Uzum navdasining ko'zlar bilan ko'rilgan bu hayratlar meni hayron qoldiraveradi, lol qoldiraveradi.

O'zini baxtli sezardi tap-taqir sahro,
U ko'rmagan edi bilmasdi
olisdag'i oydin buloqni.

O'zini baxtli sezardi oydin bir buloq.
U ham bilmas edi,
uzoqlarda
tap-taqir sahro mayjudligini.

* * *

Ariqdagi suvning ko'lmakka hasadi keldi:
- Men yugurib yetolmayapman-ku,
Bu bo'lsa...
Ko'lmak "qilt" etmadi -
bemalol quchoqlab yotaberdi
Osmonni Ko'lmak.

* * *

Dala o'rtasida bir It xomush yotar...
Xotin "it" deb qarg'adi
tashlab ketgan erini.
Bo'sag'a yorilmadi —
kirib ketsa It.
Lekin yerga og'ir botdi,
chunki og'ir edi
tuhmatning salmol'i.
Og'ir botayotgan edi bu qarg'ish xuddi

"Sen bevaferan" degan
dunyodagi eng yomon so'z kabi
Itga.

Dala o'rtasida xomush yotgan It
qo'zg'aldi
va iziga qaytdi...
Boshi egik edi uning.

Shoir og'amning she'rleri biri-biridan ajoyib, tishingizga tegib qolmaydi. Yuqorida sizga aytgan ko'ngilning tushunib bo'lmas injiqqliklariga malham bo'ladi, bu she'rler. Bu misralar olislarda qolib ketgan bolaligingiz, sho'xliliklaringiz, muhabbatningizga lahma bo'lsa ham yetaklab ketadi. Shunday bitiklarni o'quvchilariga in'om qilgan shoirga ham, kitobni tuhfa qilgan insonga ham rahmat aytib, so'zimni shu yerda yakunlayman.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

Mulohaza



JOHILLIKNI YENGIB

bo'lmaydi(mi?)

Bu voqeani hech unuta olmayapman. Harakat qildim, ammo har gal nimadir qoralamoqchi bo'lganimda, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatayotganimda, ularda yosh do'stlarimning yurtimizda, xorijdag'i nufuzli ilm dargohlarida qo'liga kiritgan yutuqlaridan sevinganimda o'sha voqeal xayolimga keladi.

Va Abdulhamid Cho'lponning "Binafsha"sidan mana bu misralarni eslayman:

*Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidrlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho'zilding?*

Yigirma birinchi asr. Internet hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylandi. Kattadan kichikka qadar undan foydalanyapmiz. Istaklarimiz, izlanishlarimiz, qiziqishlarimiz bilan unga murojaat qilamiz. Sun'iy intellektning o'zi-ku, alohida katta mavzu.

Sizga aytmoqchi bo'lganim, bu emas. Oldinlari savodsiz odamlar johil bo'ladi, deb bilar edim. Hayot eng yaxshi muallim. Uning saboqlari tengsizdir. Ko'rgan-kechirganlarimdan angladimki, johillikning belgilar ko'p ekan. Oliy ma'lumot olgan, bugun millionlab ota-onalarining orzusi bo'lgan nufuzli maktablarda ham shundaylarning uchrashi kishini xavotirga soladi. Johil bir dona bo'lsa ham ko'p, ayniqsa uning ortidan ergashadiganlar, unga ishonadiganlar bor ekan.

QANOTI QAYRILGAN QUSH

Gullola onasining telefonlariga birmuncha vaqt javob bermadi. Mazasi yo'q emish, degan xabar keldi. Ona bezovta bo'la boshladi. Qizi yaxshi xonadonga kelin bo'lib tushgan. Ancha yillar kutdirib, qiz farzandli bo'ldi. U ham o'n besh yoshga to'lib qoldi. Bir go'zal orzulari bor. Arg'amchidek sochlarni sollantirib, momosini yo'qlab kelsa, kampir dunyolarga sig'may quvonar, eng oldi maktabda o'qishini og'zidan bol tomib maqtaganini maqtagan edi. Negadir keyingi paytlar kelmay qo'ydi. Kampir o'zi yo'qlab boray, desa

qizi taqilaydi: "Keling, deb chaqirmsam kelasiz, vaqt topdim deguncha o'zim oldingizga boraman". Bundan yuragiga g'ulg'ula tushadi, ishqilib qizining oilasi tinch bo'lsin-da.

Kunlar o'tar, onaning ko'ngil g'ashligi tarqamas edi. Gullola uning yagona qizi, to'rt o'g'ildan keyin tug'ilgan sevimli farzand. Gul-u lola kabi yashnab yursin, deya shu ismni o'zi tanlagan. Onaning sabri tugadi. Hozir telefon qilaman, javob bermasa, yo'iga chiqaman, qo'shni tuman qochib ketgani yo'q, deb harakatga tushdi. Uning ko'nglini uqqandek qizi telefon qilib qoldi. Gullolaning ovozida allaqanday bezovtalik bor edi.

- Nima bo'ldi, uying tinchmi, ovozing o'zingningiga o'xshamaydi?!

- Onaa... - shunday gap boshladi-yu, jimiib qoldi.

- Gullola, bolam, tinchlikmi, meni qo'rqiyma, nimalar bo'lyapti? Kasal deb eshitdim?

- Ona, meni kimdir orqamdan kuzatib yuribdi... Kechalari uxlolmayman. Hozir ham orqamda turibdi...

Onaning tili kalimaga kelmay, qaltirab ketdi. Qizi yana nimalardir dedi. Qulog'iga kirmadi. Dir-dir titrab, jon holatda, "Ravshan!" deya o'g'lini chaqirdi. Xonasidan yugurib chiqqan o'g'liga qarab:

- Tezroq mashinangni o'ngla, singlingga bir gap bo'lgan, ko'rmasam bo'lmaydi, - dedi chap ko'ksini changallab.

Erkak chaqqonlik bilan onasiga dorilarini keltirdi.

- Bulardan keraklisini ichib oling, ungacha mashinamni qizdirib turaman.

Negadir yo'l yanayam uzayib ketgandek tuyuldi. Betoqat bo'la boshladi. Qudasinikiga kirib borganida qizi hayron kutib oldi. Qayerdandir nabirasi Gulnoza paydo bo'lib, bo'yning osildi. Negadir ro'mol o'rab olibdi. E'tibor bermadi. Ko'zlar qizida edi. Nigohlari so'nik, yelkasi qisilgan, alanglab ortiga teztez qarab qo'yayotgan juvon Gullolaga o'xshamasdi.

Ko'zlar qiz yoshga to'lib, qudasiga termildi.

- Qizimga nima bo'ldi?

- Bilmadim, uch oyolar bo'lyapti, orqamdan birov poylayapti, uyimizni kuzatyapti, deb vahima qiladi, - dedi qudasi pinagini ham buzmay, choy uzatar ekan. - Ichiga jin kirib olgan, menimcha. Baxshiga qoqtirdik, qayerda nafasi o'tkir mulla bor deb eshitsak, olib boryapmiz. Hech o'zgarish yo'q.

- Do'xtirlar nima dedi, do'xtirga ko'rinnmadimi?

- O'zi xohlamayapti, dod-dod, bormayman, deydi. Jin tekkan odam shunaqa do'xtirdan qochadi, quda.

Ona qizining ahvoliga qarab, ezilib ketdi. Qudasiga yuzlanib dedi:

- Quda, Gullolani o'zim bilan olib ketib, do'xtirlarga qaratamsa. Bunday yurishi yaxshi emas, qizi voyaga yetyapti.

- Ana, o'ziga aytting, istasa ketaversin, - dedi ayol allaqanday sovuqlik bilan. Qaynonaning gapirish ohangida Gullolaning bu yerdan ketmasligiga ishonch bor edi.

Ona qiziga qaradi.

- Yo'q-yo'q, shu yerda qolaman, - dedi Gullola shosha-pisha va ko'zlar alang-jalang bo'la boshladi. Qiziga ko'zi tushgach tinchlandi.

Ona hayron edi. U nimadir qo'rinchli narsa yuz berganini his qildi. Ammo nima ekanini bilolmadi. Erkaklar og'ziga tolqon solgandek jim. Qiziga "Ketaylik", deb yalindi. Unamagach o'midan qo'zg'aldi. Qudalar sovuqqina xo'shlashdi. Darvozadan chiqayotganida Gulnoz yalindi:

- Momojon, bir kechagina qoling!

Kampir "Nima qilay?!" degandek o'g'liga qaradi.

- Yaxshisi o'zing biz bilan yur, - dedi tog'asi, - hozir ta'til, opalaring bilan Suvtusharga olib boraman.

Gulnozaning ko'zlar umid bilan bir yondi-yu, yana ma'yus tortdi:

- Menga ruxsat berishmaydi.

Tog'a mung'ayib turgan jiyaniga qarab chiday olmadni, ichkariga qaytib kirdi. Gullolaning qaynonasiga vaziyatni tushuntirgan edi, "Ana onasi, ana qizi, bilgанини qilsin", degan g'alati gapni eshitdi.

- Mashinaga chiq, ruxsat berishdi, - dedi tog'asi Gulnozagaga.

Qiz bir onasiga, bir tog'asiga qarab mashina eshigini ochdi. Shu payt Gullola jon vahmida qizining qo'lidan tortdi:

- Ketmaysan.

Ona hang-mang bo'lib qoldi. Gulnoza yig'ladı. Juvon qizining yig'laganini ko'rib, uni bag'riga bosdi. Mashina eshigini olib, qizini o'tirg'izdi, hech so'z demay, o'zi ham uning yoniga o'tirib, bir nuqtaga tikilib qoldi. Ochiq darvozadan Gullolaning qaynonasi qilt etmay, ularni kuzatib turardi. Mashina o'midan og'ir qo'zg'aldi. Uyga kelguncha hech kimdan sado chiqmadi.

Gullola ota uyiga kelib, biroz yuvosh tortgandek bo'ldi. Alang-jalang qarashlari ham yo'q. Shunday bo'lsa-da, ona o'g'liga ertalabdan singlisini do'xtirga olib borishini tayinladi.

- Pulni ayama, qancha kerak bo'lsa beraman, pensiya pullarimni yig'ib qo'yanman, - dedi.

Ravshan onasiga hazil qilgisi keldi-yu, tilini tiydi. Mavridi emas edi, singlisining ahvoli yaxshi emas.

Tekshiruv natijalari yaxshi chiqmadi, Gullolani tezlik bilan kasalxonaga yotqizdi. Gulnoza esa momosidan bir qadam ham uzoqlashmadi. Oldinlari momosinikiga kelsa, birpas o'tirib, darhol qo'shni qizlarga qo'shilib o'ynab qolardi. Bu gal momosining oldidan bir qadam ham jilmadi. Kampir nabirasidagi o'zgarishni allaqachon payqagan, savol berishdan o'zini zo'rg'a tiyib turardi. Qizning pala-partish kalta kesilgan sochlari qarab ortiq chidab tura olmadi:

- Gul qizim, uzun sochlaring o'zingga juda yarashar edi, nega kesib tashlading?

Qiz boshini quy'i soldi. Momo nabirasining yuzini o'ziga qaratdi, qizning ko'zlar qiz qosh edi. Kampir qizning yoshli ko'zlaridan o'pib, bag'riga bosdi.

- Gulim, men seni urishmadim, shunchaki so'radian-da, nega bunchalik xafa bo'lyapsan?

- Momojon, men... men sochimni o'zim kesmadim, - shunday deb, baralla yig'lab yubordi. O'zini biroz bosib olgach, davom etdi. - Ayamni ichiga jin kirmagan... Meni deb bo'ldi, hammasi. Maktabda kim qaysi o'quv yurtiga kirishi haqida suhbat bo'ldi. Ustozim aytdiki, "Sen eng bilimdon qizsan, istagan oliv o'quv yurtiga o'qishga kirasan, hatto xorijda ham o'qiy olasan".

Buni eshitib, juda sevindim. Dugonalarim bilan "Men o'qishga kiraman!" degan video olib, tarmoqqa qo'ydik. Buni hech qanday yomon tomoni yo'q, deb o'ylovdim. Bir kuni bobom ammalarim, amakilarim uyimizga boshlab keldi. Hammasi meni buzuqdan olib, buzuqqa solib, ura ketdilar. Ayam faryod solib, men tomona yugurdi. Hammalari ayamga yopishdi, "Qizingga tarbiya bera olmagansan", deb oyoq-qo'llarini bog'lab urishdi, tepkilashdi.

Meni benomus deyishib, sochimni tagidan kesib tashlashdi. Ayamni urmanglar, meni o'dirib tashlasanglar ham mayli, ayanga tegmanglar deb zorillardim, qo'llariga yopishdim, kuchim yetmadi... Ayam bir hafta qimirlolmay yotdi. O'ziga kelganidan keyin shunaqa g'alati gaplariga boshladi. Maktabga bormay qo'ydim, o'rtoqlarimning ham qulog'iga yetgan, ularning ko'ziga ko'rinishga uyaldim. Bobom urishib-so'kib majburladi. O'zi ham o'sha maktabda ishlaydi-ku, shunga bor deb majburladi. Momojon, o'qishni istamayman, eng yaxshi maktab bo'lsa ham borgim kelmaydi... Ayam tuzalib ketsa bo'ldi edi, menga boshqa hech narsa kerak emas.

- Otang qayerda edi? Shu qiyomatga jim qarab turaverdim? - deya so'radi kampir darddan ezilib.

- Aralashmadi, qarab turaverdi...

Kampir chuqr "uff" tortdi.

- Momojon, men yomon qiz, - shunday deb boshini bolishga bosib, entikib-entikib yig'ladi.

Kampir qizning boshini siladi, engashib peshonasidan o'pdii:

- Unday dema qizim, sen dunyodagi eng yaxshi qizsan, sen yagonasan...

Aziz o'quvchi, bu muallifning to'qimasi deb o'ylamang. Afsuski o'qituvchi qiyofasidagi johillar ham bo'lar ekan. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak, degan gap ma'nisini shu voqeadan keyin chuqrroq angladim.

O'n besh yashar qizaloq. Qanotlari qayrilgan bir qush...

Qizlarining seving, sevgiga qonib ulg'ayishsin. Orzulariga mehrdan qanot bering. Ulg'ayganida alplar tug'ib beradi!

Siniq qizlar ulg'ayib, alplar tug'maydi. O'zlar kabi siniq, mute, qo'rqlarni tug'adi.

O'g'illarni ham seving, erkalang, qattiqqo'l bo'lib, ulg'ayganida ham boshqarishga urinmang! Yo'qsa, oilasini ham himoya qila olmaydigan ojizga aylanadi.

Qizdir, o'g'ildir, mardlar tug'ilsin, qo'rqa bitta bo'lsa ham ko'pdir.

Xotira

Ko'p millatli xalqimiz tarixida yurtimizda tug'ilib o'sgan, shu zaminga mehrini berib, uning rivoji yo'lida fidoyilik ko'rsatgan turli millat vakillari talaygina. Ular o'z davrida mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ulkan ulush qo'shgan zahmatkash insonlardir. San'at va madaniyat sohasida 75 yildan ziyod faoliyat yuritgan O'zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova mana shunday zabardast insonlardan biri edi. Shuningdek, podpolkovnik G'ulomjon Rahimov bilan 45 yil davomida shirin oila qurib, el koriga kamarbasta farzandlar va nabiralar ulg'aytirgan mo'tabar ayol bo'lган. Gavhar opaning olamdan o'tganiga necha yillar bo'lmasin, tarixga muhrlangan aziz nomi, hayratga sazovor zahmatli xizmati hamisha barhayotdir.



"MEN O'ZBEGIMNING



Darhaqiqat, bunday ulug' insonlar nomini unutmasligimiz, xotirasini e'zoz ila yodga olishimiz oldimizda turgan ezgu amaldir. Zero ularning millat madaniyati va san'ati yo'lidagi fidoyiliği, g'ayrat va shijoati barchamizga o'rnak. Yodimda 2001-yil 7-noyabr kuni ofitserlar uyida Gavhar Rahimovaning 90 yillik yubiley to'yi nishonlandi. Sahnaga ustoz san'atkor chiqlidi.

*Qutlug' O'zbekiston, ey ona xalqim,
Shukrona aytgali keldim qoshingga.
Sen mening baxtimsan, sen mening
taxtim,
Jonim fido bo'lsin, keksa yoshingga.*

Ko'zda shukronalik yoshi bilan dildan aytilgan bu so'zlar san'atimiz saodati uchun umrini nisor qilgan Gavhar opaning qalb nidosi edi.

SINOVLI YILLAR SURONI

Hali o'zbek sahnasi ayol zotiga bag'rini ochmagan davrlar. Gohida esa ayol uchun bu sahnani ishg'ol qilish istagi fojiali yakun topgan yillar. Mana shunday tahlikali paytda bir to'p san'at g'unchalari o'zbek sahnasida ilk bora qad rostladi. Ular orasida hali o'n oltiga to'limgan Gavhar ismli nozikkina arman qizi ham bor edi...

Gavharxonim Rahimova o'tgan asr boshlarida - 1911-yilda Marg'ilon shahrida tavallud topgan. Uning bolalik yillari og'ir kechgan. Yurtda ocharchilik, otasi Artyom Petrosyan bevaqt olamdan o'tgach, onasi to'shakka mixlanib qoldi. Qahraton qish, mahallalarda kunda va kunora ochlik tufayli odamlar hayotdan ko'z yummoxda. Shunda mahalla ahli birlashib, bir etak arman bolalarini ochlik va sovuqdan asrab qoldi. Yozga chiqib bir badavlat insonnong muruvvati bilan Marg'ilon shahrida ilk

marotaba yetim qolgan bolalar uchun "Bolalar uyi" tashkil qilindi. U yerdagi tarbiyalanuvchilar orasidan Gavhar va uning ukalari ham joy oldi.

Marg'ilonlik san'atkor Usta Olim Komilov "Bolalar uyi"da san'at to'garagi ochib, bolalarga dutor, doira chalishni, ashula, lapar, yalla va katta ashulalar aytishni o'rgata boshladi. Gavhar tez orada ustozning eng iqtidorli shogirdiga aylandi va o'zbek san'atiga kirib keldi. 1927-yili iste'dodli qizni "Bolalar uyi"dan Qo'qon truppasiga oldi. U yerda teatr yo'nalishi bo'yicha ustozni Mariya Kuznetsova yordami bilan sahnada rol ijro etdi. 1928-yilda Andijon musiqali drama truppasiga o'tgan Gavhar san'at fidoyilar bo'l mish Isoqqori aka, Soyib Xo'jayev, Lutfixonim Sarimsoqova kabi bir qator san'atkorlar bilan birga ijod qildi. Ustoz bilan suhbatalashganimda o'sha davrlarni quydigichka yodga olgandi:

- O'zbek sahnasida ayol ijodkorlarning bo'y ko'rsatishi oson bo'lmagan. Qanchadan qancha yosh qizlar, ayollar san'at yo'lida qurban bo'ldi. Ko'z oldimizda o'ldirilgan Xalchaxon, Vannaychaxon, o'n olti yoshli Nurxon... Hatto ayolini sahnaga olib chiqqani uchun er-xotin san'atkorlarni bolta bilan chopib ketgan. Bizga ham ko'p bora zug'umlar bo'ldi, ammo sahnani tark etmadik. Unutilishga yuz tutgan ko'plab xalq qo'shiqlari, lapar va aytishuvlar, yallalarmi qayta tiklab xalqqa taqdim etaverdik. Nurxon qabrga qo'yilgan kun Marg'ilonda katta miting bo'ldi. Unda betakror san'atkor Muhiddin Qoriyoqubov so'z olib, "O'ldirilgan bir Nurxon o'rmini yuz Nurxon egallaydi", deganida ustoz qanchalar haq ekanini hayot ko'rsatdi. Safimizga birin-ketin Halimaxon Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva kabi iqtidorli san'atkorlar qo'shilib bordi...

qiziman!"

Mana shu suronli yillarda Gavhar opaning hayotida katta o'zgarish yuz berdi. U andijonlik G'ulomjon ismli harbiy yigitga turmushga chiqdi. Farzandlik bo'lib ham sahnani tark etmadni. Unga opasi mashhur san'atkor Tamaraxonim tuyanch va hamfikr bo'ldi.

SAN'AT YO'LIDAGI FIDOYILIK

1930-yillardan 1941-yil - Ikkinchihon urushigacha bo'lgan vaqt mobaynida Gavhar Rahimova san'at yo'lida ulkan ishga qo'l urdi. Milliy qo'shiqchilikni puxta egallagan san'atkor sifatida respublikamizdagi viloyatlarda 25 ta ansambl tuzdi. Ushbu ansamblarga iqtidorli yoshlarni birlashtirdi, ustozlik qildi.

Ikkinchihon urushi boshlanganidan so'ng 1941-1945-yillar davomida harbiy xizmatga chaqirilgan Gavharxonim Rahimova san'atkorlar guruhiga boshchilik qilib, jangovar qo'shiq va raqlar bilan harakatdagi armiya safida jangchilarining xizmatida bo'ldi. Urush davomida 13 ta frontda bo'lib, jang maydonlarida berilgan 1 200 marotaba konsertda ishtirop etdi.

2001-yili 90 yoshni qarshilagan ustoz san'atkordan urush lavhalari haqidagi so'raganim yodimda. O'shanda xotirasni o'ta tiniq, so'zlarini keskir Gavhar opaning eng dardli kechinmalarini uyg'otganidan xijolat chekkandim. Ustoz biroz tin olib, "Urush shu qadar mal'unki, bu ofatni o'z ko'zi bilan ko'rgan insongina his qila oladi. Ilohim buni avlodlarimiz aslo ko'rmasin!

Sizlarga dengizdan tomchi sifatida bir voqeani aytib berishim mumkin, - dedi xotiralarga qaytib. - Biz san'atkorlar katta mashinada front bo'y lab navbatdagi belgilangan joyga konsert berish uchun ketayotgan edik. Men haydovching yonida edim. Qahraton qish, hammayoq oppoq qor. Shunda uzoqdan yo'l chetidagi qandaydir qoramtiy uyumga ko'zimiz tushdi.

Yetib borib qaraganimizda ishonasizmi, yosh bolalarning bo'laklarga bo'lingan, sovuqda qorayib ketgan jasadlari edi! Men frontda ko'plab ayanchli holatlarni ko'rdim. Xudodan umrim davomida qotgan non yeb, sovuq suv ichib yashasam ham, faqat tinchlik ato qilishini tilaganman. Siz muxbirlar

yozinglar, xalqimiz bilsinki, biz mustaqil yurtda, dorulamon zamonda yashayapmiz. Bizdagi tinchlikning o'zi eng oliy baxt. Shu baxtni asrashimiz, hamisha hushyor bo'lishimiz shart. Chunki hozirgi terrorizm balosi ham fashizm ofatini bilan bir xil. Yurtimizni Allo shu balodan asrasin".

Gavhar Rahimova urushdan so'ng yana xalq xizmatiga qaytdi. Uning urushdagisi xizmatlari mustaqillikka erishganimizdan keyingina e'tirof topdi. 1995-yili "Jasorat" medali bilan taqdirlandi. 1999-yili "El yurt hurmati" nishonini qabul qilib oldi. 2001-yil 9-may kuni esa mudofaa vazirining buyrug'i bilan urush davrida berilmagan harbiy unvon va O'zbekiston harbiylarining libosi tantanali ravishda topshirildi.

To'qson yoshli Gavharxonim Rahimovani tadbirlarda harbiylar huzurida bo'lgani, uchrashuvlar o'tkazib, xotiralari bilan o'rtoqlashgani hamon yodimda. Ustoz san'atkoring hayot yo'li bilan bog'liq "Qutlug' yo'l" va "Doroga" nomli kitoblari ham chop etilgan. Betakror san'atkor fidoyiliq sabab ko'plab davlat mukofotlari sohibasi bo'lgan. Gavhar opa 90 yoshni qarshilagan yubileyida ko'zlarida yosh bilan bir so'zni ko'p marotaba takrorlagandi:

- Bolalarim, siz unutmangki, o'zbek xalqidek ulug' millatni men hayotda ko'rmadim. O'zbekiston o'z millati, bag'rikeng xalqi bilan har qancha faxrlansa arziydi. Men o'zimni faqat shu el farzandi deb bilaman. Men o'zbegimning qiziman!

*Nasabimni so'rasangiz
men o'zbekning qiziman,
O'zbekiston osmonining
men bitta yulduziman.
Muhammad payg'ambarning
ummamatim bilsangiz,
O'zimni o'zbek deyman,
agar qabul qilsangiz.*

Darhaqiqat, 2003-yili 92 yoshda olamdan o'tgan O'zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova o'zi ta'kidlab o'tganidek, umrining so'ngiga qadar o'zbek qizi bo'lib qoldi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Ijtimoiy himoya

HARBIY SHIFOKORLARDAN

XAYRLI TASHABBUS

Mudofaa vazirligining Termiz harbiy gospitali shifokorlari Surxondaryo viloyatining olis va chekka qishloqlarida aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazmoqda.

Ushbu tibbiy ko'rikda aholi pediatr, terapevt, ginekolog, oftalmolog, lor, nevrolog, endokrinolog kabi shifokorlar qabulida bo'lmoqda. UTT va EKG tekshiruvlaridan o'tmoqda.

Shuningdek, tadbir davomida "Sog'lim avlod uchun" xalqaro xayriya fondi viloyat filiali shifokorlari "Xotinqizlar reproduktiv salomatligi – sog'lim keljak asosi" mavzusida profilaktik suhbatalar tashkil etmoqda.

– Tibbiy ko'rikning ahamiyati shundaki, kasalliklar barvaqt aniqlanib, vaqtida chorasi ko'rildi, – deydi Termiz harbiy gospitali boshlig'ining tibbiy qism bo'yicha o'rinnbosari tibbiy xizmat kapitani Temur Isoqjonov. – Natijada xastalikning surunkali holatga o'tib ketishining oldi olinib, inson umri uzayadi. Aslida, viloyatning olis, tog'li va chekka hududlaridagi aholiga ko'rsatayotgan bu xizmatimiz keyingi besh yilda xalqimiz salomatligini mustahkamlash, xalq bilan armiya o'rtasida yakdillikni ta'minlash yo'lida amalgalash oshirilgan islohotlar samarasidir.

– Mahallamizga sog'lig'imizni o'ylab harbiy shifokorlar kelishini tasavvur qila olmas edik, – deydi Vandob qishlog'ida



istiqomat qiluvchi Zebiniso Xurramova. – Albatta, o'z vaqtida o'tkaziladigan tibbiy ko'rikning salomatlikni asrashtda ahamiyati beqiyos. Ko'pdan buyon sog'lig'imni bilish uchun UTTga tushmoqchi bo'lib yurgan edim. Lekin olis yo'l bosib, tuman markaziga borish biroz qiyinchilik tug'dirayotgandi. Mana, kutilmaganda qishlog'imizga harbiy shifokorlar kelib goldi. Shu

yerning o'zida tibbiy ko'rikdan o'tdim. Sog'lig'im yaxshi ekan. Shunday bo'lsa-da, shifokorlar vaqt-i vaqt bilan tuman markazidagi shifoxonada tibbiy ko'rikdan o'tib turishimni tavsiya qildi. Bepul dori-darmon tarqatishdi. Bundan mazmunman.

O'tkazilayotgan tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra, kasallik aniqlangan bemorlarga tegishli tavsiyalar,

shifoxonada davolanish uchun yo'llanmalar berilmoqda. Yotib qolgan va harakatlanishi cheklangan insonlar uchun ularning uyalarida tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Termiz harbiy gospitalining "yo'l xaritasi"ga muvofiq, bu kabi chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik viloyatning boshqa tumanlaridagi olis, chekka va tog'li qishloqlarida ham o'tkaziladi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni**

Xotira – ulug'

Ajdodlarga munosib BO'LAYLIK

Urush... Qalbi ezgulikka esh katta-yu kichikning yuragida nafrat uyg'otuvchi bu sovuq so'z ortida nimalar turganini uni o'z ko'zi bilan ko'rganlargina qalblarida his etadi. Dunyo ahlini qayg'uga botirib, insoniyat tarixiga qora dog' bo'ilb muhrlangan ikkinchi jahon urushi epkinlari, afsuski, bizning zaminimizni ham chetlabo o'tmagan. Garchi O'zbekistonda qirg'inbarot janglar kechmagan bo'lsada, uning xalqimiz qalbidagi jarohati mislisiz bo'ldi.

Bu haqda o'y-xayollarga berilar ekanman, rahmatli otam – Tohirjon Sobirovning bolaligimizdag mehnat faoliyati ko'z o'ngimga keladi. U kishi qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilardi, otamizni nihoyatda kam ko'rardik. Chunki oddiy kolxzochilikdan rahbarlik lavozimlariga qadar ko'tarilgan otam ishga tongda ketib, tun qorong'isida qaytar edi.

Bir kuni bolalarcha soddalik bilan: "Dada, siz ham boshqalarning otasi kabi ishga kunduzi borib kelsangiz bo'lmaydimi, axir qiynalasiz-ku?" deganim yodimda. Shunda otam: "Eh, bolam-a, biz tinch kunlarda, oddiy mehnat sharoitida ishlayapmiz. Bobongning ko'rgan-kechirganlarini eshitsang, nima der ekansan", degandi. So'ng bobom Sobirjon Kamolovning ikkinchi jahon urushining mashaqqatlarida dushmanqa qarshi kurashdagi jasoratlari haqida gapirib bergandi. Aytishlaricha, bobom ko'plab

shaharlarni fashistlar bosqinidan ozod qilishda faol ishtirot etgan va ko'plab mukofotlarga sazovor bo'lgan ekan.

Men otamning sabr-bardoshi, mehnatga bo'lgan jiddiy munosabati va har bir ishga mas'uliyat bilan yondashishiga ko'p bor guvoh bo'lganman. Uning hayotdagi har bir qadamida matonat va tinimsiz mehnat mujassam. Bobomning jasoratlari ishlari haqida eshitgach, otamdagagi shijoatni tushunib yetgandim: otam ham o'z otasi kabi jasur, vatanparvar va fidoyi inson bo'lishga intilgan.

O'sha lahzalarda bobomga bo'lgan mehrim yanada ortdi. Qalbimda harbiy bo'lish istagi paydo bo'ldi. Shu tuyg'u bilan ulg'aydim. Voyaga yetganim sari harbiy sohaga qalban yaqinlashaverdim. Maktabni tamomlaganimdan so'ng oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirdim.

Shu kungacha yurtimizning turli viloyatlarida xizmat qildim. O'tgan yillard men istiqomat qilgan hududlar saboq, tajriba va mas'uliyat maktabi bo'ldi. Irodamni mustahkamladi. Eng asosiysi, shu yillard davomida men Vatanga sadoqat, xalqqa xizmat qilishdek ulug' g'oyani hayotimning mazmuniga aylantirdim.

Ayni paytda Qurolli Kuchlar akademiyasida yosh harbiy avlodga saboq beryapman va bundan faxrlanaman. Chunki men ana shunday muqaddas qadriyatlarga, Vatan va xalqqa sadoqatni yurakdan his etgan, jonini fido qilishga tayyor bo'lgan buyuk ajdodlar avlodiman!

Bugun bobomni dilda faxr bilan eslayman. U kishi kabi fidoyi insonlarning hayoti bugun tarixga aylangan. Bu tarix esa kelajak uchun ibrat maktabidir. Men mana shu maktab sabog'ini oldim. Aslida, u kishining hayoti insonparvarlikka yo'g'rilgani bilan qadrli. Shu boisdan ham bobom kabi vatanparvar insonlarning jasorati, sadoqati va fidoyiligi menga hayotdagi yo'lboshchim bo'ldi.

Bugun yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Bu – eng ulug' ne'mat, eng bebaboh boyligi! Shu bois tinchlik va osoyishtalikka hamisha shukr qilish, uni asrash va qadriga yetish barchamiz uchun muqaddas burchdir. Bu tuyg'un farzandlarimizning qalbiga ham jo etish har birimizning farzimiz sanaladi. Shundagina biz ajdodlarimiz qoldirgan an'analarga munosib voris bo'lib, el-yurt oldida yuzimizni yorug' qilgan bo'lamiz.

**Podpolkovnik B. SOBIROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi**

Jahon kubogi va O'zbekiston ochiq championati



SPORT ORQALI

BUYUK IPAQ YO'LINI birlashtiramiz

Triatlon mamlakatimizda jadal rivojlanib borayotgan sport turlaridan biridir. Milliy federatsiyaning faoliyat ko'rsatishi, muntazam ravishda xalqaro musobaqlar o'tkazilishi o'zbekistonlik triatlonchi va paratriatlonchilarning qit'a va jahon reytinglarida o'z o'rinnarini mustahkamlab borishini ta'minlamoqda.

Samarqanddagi xalqaro "Silk Road Samarkand" turistik markazining ikkinchi marta jahon miqyosidagi musobaqaga mezbonlik qilishi fikrimizning yaqqol misolidir. 2025-yilgi "World Triathlon Cup Samarkand" va "World Triathlon Para Cup Samarkand" bahslari va O'zbekiston ochiq championatida dunyoning ellikka yaqin davlatidan tashrif buyurgan yuzlab elita toifadagi hamda nogiron sportchilar ishtirok etdi.

Ma'lumki, 2024-yili Samarqand bиринчи мarta мазкур мусобақагаmezbonlik qilib, tashkilotchilik borasida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgandi. Chunki "Silk Road

Samarkand" turistik markazi hududida joylashgan eshkak eshish kanali hamda bu yerdagi velopoyga va yugurish uchun yaratilgan sharoitlar triatlon bahslarining murosasiz kechishini ta'minlaydi. Aynan shu sharoitlarni bevosita kuzatish maqsadida Butunjahon triatlon ittifoqi rahbari Antonio Fernandes Ariman ni xalqaro delegatsiya bilan Samarqandga keldi va mamlakatimizda sportga, jumladan triatlon rivojiga yuksak e'tibor qaratilayotganiga guvoh bo'ldi. U musobaqa oldidan o'tkazilgan matbuot anjumanida jahonda triatlonni yanada ommalashtirish uchun O'zbekistondagi

milliy triatlon maktabi o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotganini ta'kidladi. Shanba kuni ertalabki 7.00 da muxlislar dastlab paratriatlonchilar bellashuvlariga guvoh bo'ldi. Ushbu yo'nalishda sportchilar 6 toifa (*ko'rish qobiliyati zaif, tayanch a'zolari va qo'l qismidagi sog'lig'i bo'yicha muammolari borlar*) bo'yicha ishtirok etib, 750 metrga suzish, 19 km.ga velopoyga, 5 km.ga yugurish borasida startga chiqdi. Ular orasida Rustamjon Sotiboldiyev, Saidakbar G'oziyev, Mashhurbek Abdusamatov, Shohsanam Sobirjonova, Kamolaxon Axmatxonova kabi tajribali atletlar mamlakatimiz sharafini munosib himoya qildi. Yakuniy natijalar bo'yicha o'zbekistonlik parasporthilar "World Triathlon Para Cup Samarkand - 2025" bosqichida bitta kumush va ikkita bronza medalni qo'lga kiritdi.

Erkaklar. PTS II toifasi:
 1. Vasiliy Yegorov (*neytral sportchi*).
 2. Jerom Roy (*Namibiya*).
 3. Rustamjon Sotiboldiyev (*O'zbekiston*).



Ayollar. PTS V toifasi:

1. Irina Grajdanova (*neytral sportchi*)
2. Shohsanam Sobirjonova (*O'zbekiston*)
3. Kamolaxon Axmatxonova (*O'zbekiston*)

Musobaqaning birinchi kungi dasturini ayollar va erkaklar elita guruhlaridagi bahslarni yakunlab berdi. 1,5 km.ga suzish, 40 km.ga velopoga, 10 km.ga yugurishdan iborat bellashuvlarda Alina Hakimova, Kindos Jeremi, Aleksandr Kurishov va Komron Xo'jayev O'zbekiston bayrog'i ostida sovrinli o'rirlar uchun kurash olib bordi. Osiyo kubogi hamda championatlarining bir necha bor g'olib va sovrindori bo'lgan Kindos Jeremi, Aleksandr Kurishov suzish va velopoga dasturi bo'yicha yetakchilar qatorida borib, g'oliblikka asosiy da'vogarlar safida harakat qildi. Ammo 10 kilometrik yugurish bahslaridan keyin Kindos umumiy 01:49:55 natija bilan 20-o'rinni egalladi.

Elita guruhi. Erkaklar:

- 1,5 km.ga suzish, 40 km velopoga, 10 km yugurish:
 1. Maksim Xyuber-Musbruger (*Fransiya*) – 01:46.43.
 2. Marton Kropko (*Vengriya*) – 01:46.58.
 3. Mate Byulio (*Kanada*) – 01:47.08...
 47. Aleksandr Kurishov – 01:55:43...
 47. Komron Xo'jayev – 01:57:02.

Elita guruhi. Ayollar:

- 1,5 km.ga suzish, 40 km velopoga, 10 km yugurish.
 1. Diana Isakova (*neytral sportchi*) – 01:59.54.
 2. Lea Konin (*Fransiya*) – 02:00.24.
 3. Konstansa Arpinelli (*Italiya*) – 02:00.26...
 24. Alina Hakimova (*O'zbekiston*) – 02:12:56.

Jahon kubogi doirasida triatlon bo'yicha O'zbekiston ochiq

championatida Mudofaa vazirligi sportchilari ham muvaffaqiyatli qatnashdi. Professional hamda havaskor sportchilar bilan birgallikda turli yosh toifasi va yo'nالishlarda sovrinli o'rirlar uchun kurash olib borgan harbiyalarimiz super sprint yo'nالishidagi jamoaviy estafetada birinchilikni qo'lga kiritdi. Daniil Tuxfatulin va Liliya Siganenko juftligi suzish, Danil Fyodorov va Kseniya Li juftligi velopoga, kichik serjantlar Sevara Choriyeva va Doniyor Jo'rayev yugurish bahslarida barcha raqiblarini ortda qoldirdi. Shuningdek, yakkalik bellashuvlarda kichik serjant Aleksandr Kurishov oltin medal sohibiga aylangan bo'lsa, kichik serjant Hayitxon Abdumannopova esa shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy egalladi.

O'zbekiston ochiq championat g'olib va sovrindorlari:

Ayollar. Yoshlar toifasi:

1. Diana Biktimirova (*O'zbekiston*)
2. Dayana Lukiyenko (*O'zbekiston*)
3. Angelina Blindul (*Qirg'iz Respublikasi*)

Erkaklar. Yoshlar toifasi:

1. Ali Rizozoda (*Ozarbayjon*)
2. Azizullo Abdulkodiyev (*O'zbekiston*)
3. Muhammadyusuf Abdusalilov (*O'zbekiston*)

Elita guruhi.**Ayollar:**

1. Alina Hakimova (*O'zbekiston*)



2. Leyla Abdulazizova (*Ozarbayjon*)

3. Hayitxon Abdumannopova (*O'zbekiston*)

Elita guruhi. Erkaklar:

1. Aleksandr Kurishov (*O'zbekiston*)
2. Sultan Aliyev (*O'zbekiston*)
3. Aleksey Makarenko (*O'zbekiston*)

Qayd etish kerakki, musobaqa sport tamoyillari bo'yicha ham, tashkilotchilik borasida ham yuqori saviyada tashkillashtirildi. Xorijlik taniqli sportchilar jahon kubogining navbatdagi bosqichida va O'zbekiston ochiq championatida

qatnashishdan tashqari Samarqandning diqqatga sazovor qadimiy va zamonaviy qadamjolari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Register maydonida ular uchun maxsus lazerlar shousi namoyish etildi.

Musobaqlardan so'ng O'zbekiston va Butunjalon triatlon ittifoqi o'rtasida kelgusidagi hamkorlikni mustahkamlash to'g'risidagi memorandum imzolandi. Ushbu memorandum imzolanishi natijasida mamlakatimizning triatlon bo'yicha jahon va Osiyo championatiga mezonlik qilish imkoniyatlari yanada oshdi. Bu orqali mana shunday nufuzli sport musobaqalari bilan Buyuk Ipak yo'lini birlashtirish, mamlakatimizni dunyoning turizm markazlaridan biriga aylantirishimiz yanada jadallahadi.



O'zbekiston championati

"Rally Muynak – 2025"

G'OLIBLARI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, Turizm qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi tomonidan Mo'ynoq tumanida "Rally Muynak – 2025" avtoralli bo'yicha O'zbekiston championati o'tkazildi.



Shunqorlar

Hududiy bosqich

DAVOM ETMOQDA



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markazi kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining Toshkent shahri bosqichi o'tkazildi.

Unda poytaxt tumanlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabardan tashkil topgan 12 ta jamoa ishtiroti etdi.

17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlar uch blokdan iborat sinovlar o'tkazildi:

"Harbiy-vatanparvarlik bloki"da jamoa a'zolarining O'zbekiston tarixiga doir bilimlari tekshirildi. Shuningdek, "Saf qo'shig'i" va "Biz – bir jamoamiz!" ko'rik-tanlovlar o'tkazildi.

"Harbiy-amaliy ko'pkurash bloki"da jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdi. Harbiylashtirilgan estafeta doirasida yoshlar "AK-74" avtomatini qismalgara ajratish va yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.

"Sport bloki"da ular duatlon, 100 metr masofaga yugurish va turnikda tortilish bo'yicha kuch sinashdilar.

Do'stona va murosasiz kechgan bahslarda Chilonzor tumanı yoshlaridan iborat "Burgutlar" jamoasingning qo'li baland kelib, 1-o'rinni egalladi. Ushbu jamoa endi iyun oyida o'tkaziladigan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining final bosqichida Toshkent shahri sha'nini himoya qiladi. Ikkinci o'rinn Mirzo Ulug'bek tumanining "Temuriylar" jamoasiga, 3-o'rinn esa Bektemir tumanining "Yosh gvardiyachilar" jamoasiga nasib etdi.

Shuningdek, Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan respublika bosqichida Qo'ng'iroq tumanı, Sirdaryoda o'tkazilgan viloyat bosqichida Sirdaryo tumanı yoshlari g'oliblikni qo'lg'a kiritib, final bosqichda ishtirot etish huquqini qo'lg'a kiritdilar.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Championatni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqada turizmni rivojlantirish va sayyohlar oqimini ko'paytirish, avtomotosport turlarini ommalashtirish, shuningdek yosh avlodni texnik va amaliy sport turlariga jaib etishdan iborat.

Tadbirning ochilish marosimida "Vatanparvar" tashkiloti markazi kengashi raisi Husan Botirov, Mo'ynoq tumani hokimi Baxtiyar Menglibekov va Turizm qo'mitasi bo'lim boshlig'i Shuhrat Isakulov so'zga chiqib, sportchilarga omad tiladi.

Mamlakatimizning turli viloyatlaridan va xorijidan kelgan sportchilar ikki toifadagi avtomobilillarda – dvigatel hajmi 1 600 sm³gacha "A-8" va dvigatel hajmi 2 000 sm³gacha "A-9" sinflari bo'yicha bellashdi.

Shuningdek, dvigatel hajmi 2 000 sm³gacha "Baggi" va dvigatel hajmi 125 sm³gacha va 500 sm³gacha mototsikllar bo'yicha musobaqlar ham tashkil etildi.

"Rally Muynak – 2025" avtomotosport musobaqlarida 120 nafardan ortiq avtomotosport ustasi, shundan 40 dan ortiq avtomobil, 25 dan ziyod mototsikl va 15 dan ortiq "Baggi"da ishtirot etdi.

Uch kun davom etgan nufuzli musobaqani nafaqat o'zbekistonliklar, balki butun dunyo bo'ylab ushbu sport turi ixlosmandlari katta qiziqish bilan kuzatdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan sport musobaqlari quyidagi natijalar bilan yukanlandi.

Yengil avtomobil sportchilari o'rtaida:

"A-8" sinfida:



1-o'rinn: Temur Narziqulov, Aziz Turopov (Namangan v.);

2-o'rinn: Fikrat Axtamov, Firuz Jumayev (Samarqand v.);

3-o'rinn: Ilhom Obidjonov, Vladimir Minin (Samarqand v.).

"A-9" sinfida:

1-o'rinn: Rashid Murodov, Qilich Narziqulov (Buxoro v.);

2-o'rinn: Umid Toshpo'latov, Jasur Temirov (Qashqadaryo v.);

3-o'rinn: Rustam Muxamedov, Elyor Rahmonov (Toshkent sh.).

"Baggi" sinfida:

1-o'rinn: Xurshid G'aniyev (Jizzax v.);

2-o'rinn: Ravshan Qobilov (Sirdaryo v.);

3-o'rinn: Ilhom Axmedov (Andijon v.).

Motokross sportchilari o'rtaida:

"125 sm³" (katta yoshlilar) sinfida:

1-o'rinn: Bogdan Saturyan (Navoiy v.);

2-o'rinn: Bekzod Halimboev (Buxoro v.);

3-o'rinn: Begaris Aytbayev (Qoraqalpog'iston R.).

"500 sm³" sinfida:

1-o'rinn: Jasurbek Samatov (Buxoro v.);

2-o'rinn: Baxtiyor Axmedov (Buxoro v.);

3-o'rinn: Adham Temirov (Navoiy v.).

"Rally Muynak – 2025" avtomobil sporti musobaqlari g'olib va sovrindorlariga Turizm qo'mitasi tomonidan ajratilgan pul mablag'lari topshirildi. Shuningdek, g'oliblar, murabbiy va hakamlar O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markazi kengashining medallari, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqqdirlandi.

HARBIY SPORT MUSOBAQASI

Yaqinda Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markazi kengashi raisi kubogi uchun an'anaviy "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining Sirdaryo viloyati bosqichi o'tkazildi.

Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhidagi tarbiyalash kabi maqsadlarga qaratilgan mazkur musobaqa o'z mohiyatiga ko'ra xizmat qildi. Unda viloyatning tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlardan tashkil topgan jamoalar o'zaro bellashdi.

Belgilangan nizomga ko'ra, ishtirokchilar yetti bosqichli sinovlarda nimalarga qodirligini namoyish etdi. Jarayonlar mutaxassislar tomonidan sinchkovlik bilan kuzatib borildi. Ilk sinovda jamoalarning safda yurish ko'nikmalari baholandi. Shundan so'ng jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdi. Shuningdek, ishtirokchilar o'qotar qurolni qismalgara ajratish va yig'ish hamda gazga niqobni kiyish va belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.



Bu jarayon ishtirokchilarning merganligi va tezkor harakatlarni sinovdan o'tkazdi. Sport blokida yoshlar duatlon va turnikda tortilish shartlarida musobaqlashdi. Qizg'in va murosasiz kechgan bellashuv natijalariga ko'ra, faxrli birinchi o'rinn Respublika IIV Sirdaryo akademik litseyining "Burgut" jamoasiga nasib etdi.

Takidlash joizki, o'tgan yilgi musobaqa natijalariga ko'ra ham Sirdaryo tumani yoshlariga teng keladigan jamoa topilmagan edi. Ikkinci o'rinn Guliston shahrining "Temuriylar" jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa, faxrli uchinchi o'ringa Boyovut tumanining "Millat g'ururlari" jamoasi munosib deb topildi. G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqqdirlandi.

Sirdaryo tumanining "Burgut" jamoasi endi iyun oyida o'tkaziladigan o'yinlarining final bosqichida viloyat sharafini himoya qiladi.

Akbar ALI

E'tirof

Mayor Norqulovning kitobi taqdimoti



O'zbekiston Milliy matbuot markazida safdoshimiz, birlashgan tahririyatimizda ko'p yillar harbiy jurnalist sifatida xizmatni o'tab, "mayor" unvoni bilan nafaqaga chiqqan Aziz Norqulovning "Jar yoqasidagi masxaraboz" nomli kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Publitsistik maqlolar, badihalar, falsafiy qaydlar, hajviyalar o'rin olgan kitobning so'zboshisida filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov shunday yozadi: "Publitsist va adib do'stimiz Aziz Norqulovning ijod namunalarini odatiy qoliplardan yiroqligi, ijodiy yondashuvga tayanilgani uchun katta qiziqish bilan o'qildi. Ijodkorning yutug'i shundaki, an'anaviy mavzularga ham yangicha nazar va uslub bilan yondasha biladi.

Mahoratlari qalamkashning bitiklari muttasil ravishda fikrayoutgan, faqat o'zini o'ylamay, jamiyat hayoti uchun kuyinayotgan, jonagon Vatan ni va xalqining ertangi kuni uchun chin dildan qayg'urayotgan millat ziyolisining fikrlarini ifodalagani jihatidan qimmatlidir."

Darhaqiqat, kitobdan o'rin olgan maqlolarni o'qir ekansiz, jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarni yurakdan his qila boshlaysiz. Muallif so'z qudrati bilan sizning ham qalbingizga kirib borib, qiyinayotgan ba'zi savollaringizga javob topishga undaydi.

Taqdimotda "Ma'naviy hayot" jurnalining bosh muharriri, shoir Eshqobil Shukur, mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifi masalalar va yoshlar ishlari bo'yicha maslahatchisi Olimjon O'sarov, "Oltin meros" jamg'armasi raisi Amirkul Karimov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Shodmonkul Salom va boshqalar so'zga chiqib, yangi kitob haqida o'z fikr-mulohazalari hamda samimi tilaklarini bildirdi.

Kitob mundarijasidagi maqlolarning aksariyati harbiy mavzudagi maqlolardan iboratligi Azizbekning Qurolli Kuchlar safida samarali faoliyat yuritgani isbotidir. U bir necha yillik xizmati davomida milliy armiya va uning saflaridagi yigitlarning sharafli xizmatini targ'ib qilish, mamlakatimizda harbiy xizmat va kasb nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shdi. Uning kitobga kirmagan ko'plab maqlolari "O'zbekiston armiyasi" jurnalni va "Vatanparvar" gazetasi sahifalarini bezab turibdi.

Ayni paytda "Ma'naviy hayot" jurnalida muharrir vazifasida faoliyatini davom ettirayotgan hamkasbimizga samimiylilik, chuqu bilim va tafakkur, ijodiy barkamollik yor bo'lishini tilab,

TAHRIRIYAT

Tibbiy ko'rik

HARBIY PROKURATURA – armiya prokuraturasi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini, Qurolli Kuchlar tizimidagi xotin-qizlarni ijtimoiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilayotgan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar mamlakatimiz bo'ylab davom etmoqda.

Kuch tuzilmalari hamkorligida "Harbiy prokuratura – armiya prokuratusi" shiori ostida o'tayotgan tadbirlarning navbatdagi manzili Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus tumani bo'ldi.

Unda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari, farzandlari, shuningdek harbiy ayollar, xodimlar, ularning oila a'zolari va hududdagi mahallalarda istiqomat qiluvchi, shu jumladan nogironligi, jismoniy nuqsoni va og'ir xastaligi bo'lgan ayollar tor doiradagi mutaxassislik bo'yicha malakali shifokorlar ko'rigida bo'ldi.

Adliya podpolkovnigi Sultanmurat KALENDEROV, Nukus harbiy prokurorining katta yordamchisi

Jarayon

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Jizzax viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o'rganishlar olib borildi.

O'rganishlar olib borildi

Xususan, viloyat Milliy gvardiya boshqarmasida hamda Mudofaa vazirligiga qarashli qator harbiy qism va shaharchalarda mavjud sharoitlar, bunda energotejamkorlikni ta'minlash, energiya resurslaridan samarali foydalishan masalalari o'rganildi.

Jarayonda nazary va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish xonalari ahvoli, yordamchi xo'jalik faoliyati, huquqburzaliklarning oldini olish hamda faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi. Yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, Jizzax davlat pedagogika universitetining 40 nafr talaba-qizi ishtirokida tashkil etilgan "Harbiy qismda bir kun" tadbiri doirasida yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

Askarlar bilan o'tgan samimiy muloqotda esa ularning qiziqishlari o'rganilib, qiziqtirgan savollari yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Adliya kapitani Lochin KURBONBOYEV, Jizzax harbiy prokurorining o'rinnbosari

Kelajak bunyodkorlari

ENG BUYUK sharaf

Joriy yil 24-may kuni yurtimizdagи barcha maktablarda "Ilm – eng buyuk sharaf" shiori ostida so'nggi qo'ng'iroq tadbirlari bo'lib o'tdi.

Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahridagi 11-sonli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabda ham so'nggi qo'ng'iroq tadbiri bayramona ruhda o'tdi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan kuch tuzilmalari hamkorligida tashkil etilgan vatanparvarlik tadbiriga ulanib ketdi.

So'z oiganlar Prezidentimizning mакtab bitiruvchilariga bayram tabrigi mohiyatini yetkazib, ularga katta hayotda yuksak ishonch bildirilganini e'tirof etdi.

Ulkan maqsadlar sari qat'iy va dadil qadam tashlab, bor bilim va salohiyat bilan el-yurtimiz nufuzi va manfaati yo'lida fidokorona mehnat qilishlari ta'kidlanib, ezgu tilaklar bildirildi.

Jarayonda mакtab o'quvchilari va bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining esdalik sovg'alari topshirildi.

Harbiy xizmatchilarning kuy-qo'shiqlari o'quvchilarning badiiy chiqishlari bilan uyg'unlashib, barchaga chinakam bayram kayfiyatini ularshdi.

Bu kabi tadbirlar o'quvchilarni faol fuqarolik burchi va mas'uliyatini chuquq anglashga undab, ularning kelajakda yetuk inson bo'lib shakllanishlarida xizmati katta.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV, Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Yig'ilish

Bosh prokuror o'rinnbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot yo'nalishida joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

VAZIFALAR belgilandi

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda mahkama tarkibiy tarmoqlari rahbar va xodimlari, joylardan hududiy harbiy prokuror va prokuror-tergov xodimlari ishtirot etdi.

Jarayonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida, shuningdek huquqburzaliklarning oldini olish borasida amalga oshirilgan huquqiy targ'ibot-profilaktika va vatanparvarlik tadbirlari natijalari hamda sohaga doir boshqa masalalar muhokama qilindi.

Suhasnoda tarkibiy tarmoqlar rahbarlari va boshqa mas'ullarning axborotlari hamda tushuntirishlari eshitildi.

Yakunda bu boradagi kelgusi vazifalar va ularning ijrosiga doir ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Adliya podpolkovnigi G'iyosiddin RAXMONOV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarda



EZGU ISHLAR SALMOG'I ORTMOQDA

Harbiy-vatanparvarlik targ'iboti, ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Yakkabog' tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.



Yaqinda ushbu tashkilotda bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan atrorflicha tanishdik. Jamoa joriy yilning o'tgan oylari mobaynida birligina haydovchilar tayyorlash borasida yaxshi samaradorlikka erishdi. Avtomobil boshqarishning "B", "BC", "BE", "CE", "D" toifalariga nomzodlarni o'qitish hamda qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi belgilangan vazifalar muvaffaqiyatli uddalandi. Bu esa o'z-o'zidan haydovchilar tayyorlash jarayoni yuqori saviyada tashkillashtirilayotganining hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligida sohaga o'ziga xos uslubda yondashilayotganining natijasidir.

- Haydovchilar tayyorlash tizimining yanada takomillashuviga hissa qo'shishga



harakat qilmoqdamiz, - deydi O'STK boshlig'i Shuhrat Tursunov. - Buning uchun tashkilotimizda barcha shart-sharoitlar yetarli. Sirasini aytganda, jamoamiz bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda malakali haydovchilar tayyorlashga jiddiy kirishgan.

Yoshlar o'rtaida sport musobaqalarini muntazam o'tkazish yo'lga qo'yilgan. "Havo miltig'idan o'q

otish", "Karting", "Motokross" kabi seksiya va to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Klub a'zolari viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirot etib, yaxshi natijalarni egallab kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni jismoniy va ma'nnaviy yetuk insonlar etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar salmog'i yanada ortdi. Inson salomatligi borasida gapirilganda albatta sportning o'ziga xos o'rnii bor. Shuning uchun ham sportning texnik va amaliy turlarini yana ham rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, klubda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi

tarbiyalash borasidagi ishlar samarali tashkil etilgan. Yoshlar qalbiga Vatanga muhabbat hissini singdirishda keksa avlodning o'gitlari katta ahamiyatga ega. Shu bois ham reja assosida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat faxriylari, turli soha vakillari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazish ham an'anaga aylangan.

Shu maqsadda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!", "Ochiq eshiklar kuni", "Uch avlod uchrashuvi" kabi tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda. Chunonchi, 9-may Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, Ma'nnaviyat va targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!" mavzusidagi tadbir ham shular sirasidan.

Shuningdek, turli mavzularda ma'nnaviy-ma'rifiy hamda sport tadbirleri muntazam tashkil etiladi.

Chunki tashkilot jamoasi nafaqat malakali haydovchilar tayyorlashni, balki yoshlarni har jihatdan yetuk va barkamol etib tarbiyalashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Akbar ALLAMURODOV



Talabalar minbari

Toshkentning sokin kechasidan so'ng osoyishtalik bilan tong otmoqda. Hamma shirin uyquda. Chirog'i yoniq uylardan birida esa 68 yoshli otaxon yashaydi. U sport libosida. Qo'lida soat, velosipedida sport anjomlari bilan har tong chiqib, qayoqqadir yo'l oladi. Mana, manzilga – "Anhor" xiyoboniga yetib keldi. So'limgina anhor tonggi quyosh nurlarida jilvalanib oqmoqda. Atrof yam-yashil daraxtlar bilan qoplangan. Havosi kislorodga boy bu joyda Rashid ota va uning guruhi tonggi mashg'ulotlar bilan band.

20 yildan oshiq vaqtidan buyon toza havoda muntazam mashq qilayotgan guruham a'zolari orasida 87 yoshli havaskor sportchilar ham bor. Vladimir Grigoryevich asos solgan ushu mashg'ulotlaridagi darslar har bir inson uchun ochiq. Toshkentdag'i istirohat bog'ida 20 yil avval boshlangan sport harakati bugun yuzlab insonlarning kundalik hayot tarziga aylangan. Bu

OCHIQ OSMON OSTIDA



oddiy mashg'ulot emas, ushu – Xitoy jang san'ati. Uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib, keng jamoatchilikka taqdim etgan inson esa asli kasbi arxitektor Vladimir Grigoryevich hisoblanadi.

– Men uchun arxitektura hayotimda qanday mazmun ifodalasa, sport ham shunday o'rinn tutadi, – deydi 87 yoshli mutaxassis. – U tasodifiy qiziqish tufayli boshlanib, hayot tarzimizga aylandi.

Rashid aka bir kuni ko'chada sayr qilib yurganida ushbu mashg'ulotlarni ko'rib, qiziqib qoladi. Mashqlarni diqqat bilan kuzatib turgan Rashid akani Vladimir Grigoryevich jamoasisiga taklif qiladi. Shu-shu, Rashid aka 15 yildan buyon ushu bilan shug'ullanib keladi. Endilikda u mashg'ulotlarni guruham sardori sifatida boshqarib bormoqda.

– O'sha kundan hayotim ijobjiy tomonga o'zgara boshladidi. Faqat jismoni emas, ruhiy jihatdan ham kuchga to'ldim, – deya hikoya qiladi guruh sardori. – Guruh mashg'ulotlarining o'ziga xos tomoni – yosh chegarasining yo'qligi. Eng yoshi katta a'zo 87, eng yoshi kichigi 28 yashar. Ishtirokchilarining barchasi ixtiyoriy asosda, faqat sog'lom turmush tarzini tanlab, bu yerga keladi. Kim sog'lom bo'lishni istasa, eshiklarimiz ochiq.

Tong saharda boshlanadigan mashg'ulotlar toza havoda o'tkaziladi. Dastlabki bosqich chigalyozdi mashqlardan iborat. Ular 8, 12 va 18 ta harakatdan iborat. 18-si tanani qizdirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qilich bilan 32 harakatli mashqlar, tayoq, "51" va energiyani oshirishga qaratilgan "24" harakati ham shu mashg'ulotlar tarkibiga kiradi. Vladimir Grigoryevichning ta'kidlashicha, mashqlar yil sayin boyitib boriladi va harakatlar nafaqat tanani, balki ruhan tetik bo'lib, hayotga o'zgacha nighoh bilan qaray boshlagan.

Guruh a'zolari uchun ushu – oddiy sport emas, hayot falsafasi. Ong va tana uyg'unligi, ichki kuch va sabrni mujassamlashtiruvchi vosita. Aksariyat ishtirokchilar nafaqat jismongan baquvvat, balki ruhan tetik bo'lib, hayotga o'zgacha nighoh bilan qaray boshlagan.

– Ushu menga faqat sog'liq emas, yangi do'stlar, yangi maqsadlar ham berdi, – deydi guruham a'zolardan biri.

– Bugungi tezkor va stressga to'la hayotda salomatligini asrab qolish har kimning o'z qo'lida.

Xiyobondagi oddiy mashg'ulotlardan boshlanadigan sog'lom hayot sari qadam, balki, sizni ham kutayotgandir? Buning uchun sizdan faqat iroda va qat'iyat talab qilinadi.

**Gulshoda SHAKAROVA,
O'zJOKU talabasi**

OQIBAT QAYERDA qolmoqda?



Bundan tashqari, 2024-yil 7-may Farg'ona viloyatinining Bag'dod tumanida yashovchi fuqarolarning o'zaro kelishmovchiligi sabab pichoqbozlik vujudga kelgan. Aynan shu yilning 6-iyun sanasida Jizzax viloyatinining Zarbdor tumanida istiqomat qiluvchi qo'shnilar qattiq va sovuq qurol orqali bir-biriga ziyon yetkazgan holatlar yuz bergen". Bu kabi ko'ngilsiz holatlar ko'p uchramoqda.

Ikkita yosh bolaning arzimasgina kelishmovchiligi tufayli yaxshi-yomonni farqiga boradigan, kichiklarga odob-axloqdan tarbiya beradigan yoshdag'i shaxslarning aql bovari qilmas janjali hammani hayron qoldirdi. Yana shunday mojarolar bois fuqaroning qo'shnisinikida boqilayotgan kuchuk misol bo'limoqda. Vaholanki, it

boshqa hovlida bo'lsa-da, uning akillashi, notanish kimsalarga hurishi, tuni bilan odamlarga ovozi orqali xalal berishi qo'shnilar o'rtasida pichoqbozlik qilishgacha olib kelgan. Ongli ravishda qaraydigan bo'lsa, yaqinlar o'rtasidagi nizolarning yakuni yaxshilik bilan tugamayotgani hammasidan achinarlidir. Yana kap-katta erkaklar yosh boladek bittagina kabutar ustida tortishgan. Janjaldan bir kun ham o'tmasdan spirlti ichimlik ichish natijasida qo'shnisidan qasd olish uchun uning "Lasetti" rusumli avtomobilini yoqib yuborgan.

– Qo'ni-qo'shnilar orasida kelishmovchiliklar uchrab turadi, – deydi Ko'kcha mahallasi raisi Farhodjon Risqiboyev. – Asosan suv yoki yer talashish oqibatida xafagarchilik yuzaga keladi. Hattoki bir xonadonga

garashli daraxtning shoxlari devordan qo'shnisinikiga soya berib turgani janjalga sabab bo'lgan. Bu kabi hodisalar ko'p kuzatiladi. Mahalla kengashi iloji boricha vaziyatni yumshatishga harakat qiladi. Vaziyatni faqatgina bir tarafga emas, balki ikkala qo'shni hisobiga ham ijobjiy hal qilishga urinamiz. Bizning asosiy maqsadimiz daraxt yoki soyani yo'q qilishda emas, qo'shnilar o'rtasidagi mehr-oqibatni saqlab qolishga qaratilgan

Xalqimizda "Hovli olma, qo'shni ol", deb bejiz aytilmagan. Oilaning tinchligi ma'lum bir jihatdan qo'shnilarining o'zaro iliq munosabatiga ham bog'liq.

**Zulfizar
SAIDAHMADOVA,
O'ZDJTU talabasi**

BIZNING BAYRAM

Baxtiyormiz, quvnoqmiz, shodmiz,
Hur Vatanda qaddi shamshodmiz.
Ilm olib charchamaymiz hech,
Ona elim kutgan avlodmiz.

Biznikidir nurli kelajak,
Maqsadimiz beqiyos, yuksak.
Har kunimiz bayramlarga xos,
Har onimiz sehrli ertak.

Bizning bayram – 1-iyun,
Aziz ayyom o‘g‘il-qiz uchun.
Dunyo bo‘ylab qoqadi qanot
Bolajonlar shodligi bugun.

Qani, do‘stim, mahkam bog‘la bel,
Do‘stlik uchun qo‘lni qo‘lga ber,
Olam aro qanotin yozib,
Davralarni quchsin qo‘sinq, she’r.

SPORTCHI

Ishonmassiz, balki, so‘zimga,
Va‘da berdim o‘zim-o‘zimga:
Ringga chiqib bo‘lgim champion,
Lol qoladi o‘shanda jahon.

Chiniqaman, tinmayman bir zum,
Futbol o‘ynash mening jon-dilim.
Yugurishda mendan zo‘ri yo‘q,
Maqtanma, deb yana urmang do‘q.

To‘g‘ri, yetti yoshdaman hozir,
Lek ozgina maqtansam arzir.
Mening bobom axir Alpomish,
Ahdim – g‘olib saflarda bo‘lish.



BIZ – VATANNING ERKATOYLARI

Ko‘z ochdik nurafshon Vatanda,
Bag‘ri hur, nurjilo maskanda.
Bu zamin quyoshga ostona,
O‘lkalar ichida yagona.

Nurli va nurafshon ertamiz,
Ona el bag‘rida erkamiz.
O‘ylamang dangasa, tanbal deb,
Shaxtimiz ko‘rganlar qoyil der.

Biz axir kelajak vorisi,
Vatanning tayanch, or-nomusi.
Ko‘zlarga to‘tiyo har gardi,
Biz – yurtning erkatoylar dilbandi.

MEHRIBONLARIM

Dadajonim – tayanchim, tog‘im,
Onajonim – mehri bulog‘im.
Ular aziz, eng mukarram zot,
Ular sabab o‘smoqdamiz shod.

Hayotini etar armug‘on,
Farzandlarga ular fido jon.
Ulg‘aytirar beminnat, bekam,
Istagi bir: “Sog‘ bo‘lsin bolam”.

Orzu bog‘lar o‘g‘il-qiziga,
Baxt yog‘ilsin, deydi iziga.
Tavof aylab har so‘zin dildan,
Suyanch tog‘i bo‘lamiz biz ham.

QADRIYAT

Milliy libos jon-u dilimiz,
Qadim kalom turkiy tilimiz.
Tariximiz bo‘lgan afsona –
Mard Shirog‘-u To‘maris ona.

Urf-odatlar millatimga xos,
Mehmondo‘stlik azaliy meros.
Vatan sha’ni or-nomusimiz,
Barin asrar baxt qomusimiz.

Millat sha’ni aziz, muazzam,
Qadriyatlar unda mujassam.
Biz sodiqmiz o‘zligimizga,
Turkiy kalom so‘zligimizga.

VATANPARVAR



MUASSIS
O‘ZBEKİSTON
RESPUBLİKASI
MUDOFAA
VAZİRLİĞİ

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabeck Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – “Vatanparvar” birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahih: Zebo Sarlieva

Buyurtma: V-5955
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 269 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa
boshsilagan.

Nashri ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6
Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.